

888. 888.
P-12.

*Edagag
ihomlari.*



812.111
P-12

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

- 3672 -

Pedagog ishlamlari

Talabalar ijodidan namunalari

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT
«ISHONCHLI HAMKOR»
2021

YDK: 811.111(075)
KBK: 81.2ya721

Pedagog ilhomlari: – Toshkent. «ISHONCHLI HAMKOR», 2021.
– 140 b.

Mas'ul muharrir va nashrga tayyorlovchilar:
fil.f.n.dotsent M.Tojiboyev,
M.Mamatova

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Ilmiy
Kengashining Qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.
(2021-yil 5 maydagi 15-sonli majlis bayoni)

ISBN 978-9943-341-41-8

YOSHILAR IJODIDA VATAN VA MUHABBAT MADHI

Muqaddima

Yosh insonning boriq va atrof-muhit borasidagi dastlabki tasavvurl, o'y-fikrlari, eng avvalo, uning ichki dunyosida qalb manzaralarida shakllanadi. Shu manzaralarning in'ikosi o'laroq yosh ijodkorning dastlabki ijodiy mashqlari dunyo yuzini ko'radi.

Biz bu o'rinda zamondosh yoshlarning kundalik hayoti, o'y-fikrlari, orzu-umid va armonlari, Vatan, ona yurt, ota-ona va yaqin insonlariga muhabbati, boringki, barcha hasbi holining o'ziga xos qirralari aks etgan misralarni Siz, aziz o'quvchi, bilan o'rtoqlashmoqchimiz.

Keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, o'z iste'dodlarini namoyon etishlari uchun keng shart-sharoitlar yaratish dolzarb masala sifatida qaralib kelinyotganligi barchamizga kundek ravshan.

Joriy yilgi davlat dasturida ham yoshlarni qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida urg'u qaratilganligi ham shu kabi amaliy ishlarining muntaziy davomidir. Joylarda kelajagimiz bunyodkorlarining o'z iste'dodlarini namoyon etishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilib kelmoqda.

Mazkur she'riy to'planning yaratilishini ham shunday amallarning bir ifodasi deyish mumkin. Bu xayrli ishning joriylanishiga yoshlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish ishtiagi undadi, albatta.

Chirchiq davlat pedagogika institutining ijod qilish istagida bo'lgan qator talanti talabalarining she'riy namunalari asosida yaratilgan mazkur to'plam, o'ylaymizki, kelajakda ushbu ijodkorlar orasidan ham zabardast qalam ahli yetishib chiqishida hissa qo'sha oladi.

Badiiy ijod namunalari bilan tanishar ekansiz, har bir ijodkorning o'ziga xos intilishini, betakror tuyg'ular ifodasini kuzatasiz. Bunda muhabbatning otashin izhorlari, dunyoning ishlaridan hayronliklar, ona va vatanga bo'lgan tuyg'ular ifodasi aks ettirilganligiga guvoh bo'lasiz. Masalan, Ra'no Sarafrozning

Oqshom to'lg'og tutib qolsa-yu tunni,
Yana tug'ib bersa, bir olam dardlar.

kabi misralarida yangi topilmalar, tuyg'ularning inja ifodasini his etishimiz mumkin bo'ladi. Odatda, tun biz uchun hayotimizni tahlil qiladigan, yangi rejalar tuzadigan, shuningdek, o'tmishimizning turli puchmoqlarida berkinib yotgan xotiralarni yanada xayolimiz salhasida namoyon etadigan o'zgacha dam hisoblanadi. Shuningdek, she'riy ifodada qizlarga xos bo'lgan tafakkur tabiatining namoyon bo'lishi o'quvchining yana ham zavq olishiga sabab bo'ladi.

Shoira Adiba Inoyatovaning "Umid" she'rida quyidagi misralarni o'qiydiz:

Vaqt – sahroda tentigan hayot,
Yo'qotganda izlagim kelar.
Meni gung deb o'ylama, hayot,
Sukunatda so'ylagim kelar.

Siyрати but, latfi borlarga
Ta'zim qilib, bukilgim kelar.
Mehr degan lolazorlarga
Yomg'ir bo'lib to'kilgim kelar.

Shoira inja misralarda qalb manzaralarini o'rtoqlashar ekan, global gumanitar muammolarni soddada, o'zbekona so'z va misralarda mahorat bilan in'ikos etadi. Misralardagi soddada so'zlar qiyofasidagi ulkan g'oyalar shunchalik o'ynoqi va ravonki, o'quvchi ularda mujassam global muammoni daf'atan his qila olmaydi: buni anglab yetish uchun unga ulkan tasavvuriy vaqt o'lchovida muddat talab qilinadi.

Tashbehni to'g'ri qarshilash ham shunchaki, jo'n yuz bermaydi. U qalbnig alohida po'rtanasini talab qiladi: "vaqt-sahroda tentigan hayot", "uni izlashdan avval yo'qotish kerak", buning uchun inson o'z qalbidagi cheksiz dunyoga murojaat qilishi kerak! Va nihoyat, u o'zligini anglagach, tom ma'nodagi insonga ta'zim qiladi, balki inson siymosidagi vaqtga ta'zim qiladi, vaqt esa, beshavqat haqiqat. Insonga faqat uni kuzatish imkoni berilgan, xoloski, vaqt buyuk hamda u qalb manzaralarining in'ikosi bo'lmish lolazorga yomg'ir kabi singib ketadi!... Mehr esa, lolazor kabi qonli! Metaforaning mukammal qiyofasi bizga tasavvurning yangi ufoqlarini ochish imkonini beradi.

Bundan tashqari, umid uchquni alangasini otashlantirgan hodisalaridan yana biri sifatida yosh ijod sohiblarini turli xil adabiy janrlarda qalam tebratishga intilishlarini ham aytishimiz mumkin bo'ladi. Xususan, Ergash Komron qalamiga mansub sonet janridagi she'rlarni shu kabi go'zal ijodning bir namunasi deyshimiz mumkin. She'riyat olamining go'zal gulshaniga endigina tashrif buyurgan ijodkor qalb sohiblari bu kabi yoshlikning shiddati, jasorati va muhabbati sizning qalbingizga ham yoshlik kuchi va quvvatini jo etisa ajab emas.

Vatan... Vatan tuyg'usi. Vatan muhabbati. Nimadir bular? Bular qanday sehrli qudratki, hali voyaga yetmagan, dunyoning buqalamun o'yinlarini ko'rmagan, turmushning past-balandlaridan beshabar, o'yin-u sho'xliklardan o'zga dardi yo'q bir o'smiring yuragiga jo bo'lib olib, butun umr uning xatti-harakatini, yurish-turishini boshqarib turadi? Bu tuyg'u inson farzandida tug'ma bo'lmaydiki? Yoki go'dak tamshana-tamshana onasini emganida, ona suti bilan birga bu tuyg'u uning ham tomirilariga yugurarmikin? Ummun, «Vatan» deganning o'zi nadir? Tug'ilib o'sgan uyimgi? Beshikda qulog'ingga kongan mungli va ayni chog'da nurli allami? Buvingning ertaklarimi? Maktabimi? Ilk bor visol onlariga guvoh bo'lgan so'lim xiyobonlarmi? Albatta, bularning hammasi va yana allaganuncha narsalar brlashib, «Vatan» degan narsaning so'mmas timsolini yaratsa kerak. Va yana o'ylaymizki, bolaning murg'ak qalbidagi ilk bor paydo bo'lgan Vatan timsoli har qancha yorqin bo'lmasin, hali o'zining shakl-u shamoyilini to'la topib ulgurmagan bo'ladi. Vatan tuyg'usi insonning o'zi bilan birga o'sib ulg'ayadigan tuyg'u bo'lar ekan. Tajribangiz ortgani sari, hayot doshqozonida qaynab pisha borganingiz sari, Vatan degan narsani chuqurroq qadrlaydigan bo'lib qolasiz. Vatan haqidagi tasavvuringiz toshib, kengayib, boyib boradi... deya vatan haqidagi qaynoq satrlarni biladi Ozod Sharafiddinov.

Vatanni sevish, uning har bir qarich tuprog'ini ko'z qorachig'idek avarash faqat u haqda so'zlash yoki u haqida jozibador qo'shiqlarda kuylash bilan amalga oshib qolmaydi. Aksincha, vatanga muhabbat har bir yosh avlodda oilasidan, maktabidan boshlanadi. Yillar o'tib esa u kurtak yozib gullay boshlaydi...

Vatanni sevgan inson uni yanada rivojlantirish uchun qo'lidan

kelgancha yordam berishga intiladi: quruvchilar yangi-yangi binolar qurib, askarlarimiz tun-u kun uning xavfsizligini saqlab yordam berisha, ijodkorlarimiz esa o'zlarining she'rlari, yaratgan asarlari va kuy-qo'shiqlari bilan uning inson badiiy tafakkuridagi timsolini yaratishga harakat qiladi.

Chirchiq davlat pedagogika instituti qoshida tashkil etilgan "Yosh ijodkorlar" nomli to'garak ham aynan shu maqsaddagi yoshlarni o'z atrofiga mujassam qilgan. Ularning she'rlari, hikoyalari va vatan to'g'risidagi maqolalarida esa, Vatanni sevish, uni ardoqlash va uning nomini olamga tarannum etuvchi g'oyalar ipga tizilgan marjondek yog'dulanadi. Xususan, yosh shoir Astor Kadirov o'z tasavvuridagi Vatanni shunday ta'riflaydi:

Vatanni madh etmoq juda mushkildir,
Neni bitsamki men, go'yo kam erur.
Qog'oz uzra hatto, qalam tushkundir,
Mos qavl topolmay, boshim xam erur.

Yuqoridagi misralardan ko'rinish turibdiki, yosh shoir o'zi tug'ilib o'sgan vatanni tariffashga so'z topolmay qiyinaladi. Uning madhini aytish uchun qancha tariffasa-da kam tuyulaveradi shuning uchun ham bu ish yosh shoir uchun mushkildir deya tariffanmoqda. Ustoz shoir Hamid Olimjon ta'riflaganidek, tuprog'ida oltin gullaydigan, qishlarida bahor shivirlaydigan shunday go'zal O'zbekistonni bizga vatan qilib bergani uchun o'zimizni baxtli deb his qilishimiz lozim.

Shunday yurtda yashay turib uning vasfini she'rga va qo'shiqqa solmaslik ham yosh shoirlarga yaraslmaydi, degan fikrlarni ham keyingi misralari orqali berib o'tadi:

Shoirlikka hech-da, yo'qdir da'voyim
Kimgadir hasadda, kimdandir o'tish,
Otashin qalbinga, yolg'iz davoyim
Vatanim madhini yurakdan bitish.

Ushbu misralardan ham ko'rinish turibdiki, shoir aynan shoir bo'lish uchun yoki qaysidir shoirdan o'tish uchun vatan haqida she'r yozmaydi, balki uni madhini yurakdan bitish uchun misralar bitadi.

Yana boshqa yosh ijodkor shoirlarimiz ham o'zining "Vatanim — onam" nomi she'rida Vatanni quyidagicha tariffaydi:

Vatanni nima deb so'rsalar agar,
Ilk yotgan beshigim izlab qolaman.
Vatanni rasmimi chiz desalar gar,
Onanning siymosin chizib beraman.

Yosh shoirlarning ushbu to'rtligidan ham ko'rinish turibdiki, vatan eng avvalo ostonadan, yani, uyimizdan boshlanadi. Shoir, vatan nima?... jumlasi bilan bolaligida yotgan beshigini eslaydi, vatanning rasmini so'raganlarga esa onasining rasmini chizib berish bilan javob berishini aytadi. Darhaqiqat, Vatan ostonadan boshlanadi.

Sizlarga taqdim etilgan Chirchiq davlat pedagogika instituti qoshidagi "Yosh ijodkorlar" to'garagi yoshlari ijodidan namunalar, ona vatanimiz to'g'risidagi ba'zi she'rlarini taqdim etdik. Har bir ijodkor yosh o'zining vatan haqidagi she'rlari, maqolalari va kuy-qo'shiqlari bilan vatanimizni tarannum etishda bir-birlaridan qolishmaydigan asarlar yaratishga bel bog'lagan.

Ularning "Askar", "Jaholatga qarshi ma'rifat", "Vatan madhi", "Yurtboshim", "G'olibimiz bugun", "Xalqim", "Shahrim" va "Mening yurtim" kabi she'rlarida O'zbek yurtining ajoyib tongidan tortib undagi odamlarning mehr-oqibatligi, mehmondo'stligi hamda ona diyorimizdagi kishilarning soddadilligi va mehnatkashligi kabi hislatlar madh etiladi, ta'riflanadi. Ajab emaski, tez orada "Yosh ijodkorlar" to'garagi a'zolarining orasidan ham yosh Usmon Nosirlar, yosh Abdulla Qodiriyilar va asarlarida vatanni kuylab charchamas yosh Mirmemirlar ham yetishib chiqsa.

*fil.f.n.dotsent Muso Tojiboyev,
Laylo Hasanova,
Farrux Boitboyev*

PUSHAYMON

(hikoya)

Azimjon bosinqirib uyg'ondi.

Tush ko'ribdi. Sahroda emish. Bir gala cho'l bo'rilar uni quvlayotganimish. U bor kuchi bilan yugurishga harakat qilar, oyoqlari qumga botib ketar, zil-zambilday oyoqlarini zo'rg'a ko'tarib bosardi. Bo'rilar unga tobora yaqinlashib kelayotgandi. Nogahon yo'lida bir buloq paydo bo'libdi. Suv ichay desa, bo'rilar yaqinlashib qolgan, suv ichmaslikning-da imkoni yo'q, vujudi chanqoqdan holsizlanib qolganmish. Chanqoq zo'rlik qilib yerga uzala tushib, suvga lab cho'zibdi. Vo'ajab, lablarini cho'zgani sari, bukoqdagi suv ham undan uzochlasharmish. Shu payt yaqinlashib kelgan bo'rilar sakrab unga tashlanibdi...

Baqirib uyg'onib kelgan Azimjonning oyoqlari ko'rpaga o'rilib qolgandi. U tez-tez nafas olar. *pe-sho-nasi-yu bo'y-laridan reza-reza ter quyilardi. "Xayriyat, tush ekan", deb pichirlaganicha, yana boshini yostiqqa tashladi. U o'rtidan turishga majburi yetmay, yetarkan, kecha nimalar bo'lganini xotirasida tiklashga harakat qildi. Ammo clas-clas eslagani shu bo'ldiki, ishdan keyin bir neçta hamkasblari bilan restoranga borishdi, hafta oxirida "charchoqlarni chiqarish" uchun qitak-qitak olishdi... Keyin harchand urinsa-da, qolganini esolmadi. Kelib yechimay ham uxlab qolgani-yu, hozir esa vujudining judayam tashnahligidan bildiki, kecha ancha ko'p ichishgan. Shu topda guyo boshiga bir gala ari kirib olgan-u, chiqish uchun yo'l topolmay tinmay g'uvillardi. U yotgan joyida tokehada turgan paxta gulli choynakni paypaslab topdi va sovuq choyni oxirigacha simirdi.*

Bunday "sher" bo'lib kelgan paytlarda erini ortiqcha bezovta qilishi kamida bitta shapaloq bilan siylanishini Ozoda yaxshi biladi. Shuning uchun bunday paytlarda erini sekin uxlatib, qo'li yetadigan tokehaga sovuq suvni yoki choyini qo'yadi-da, o'zi boshqa xonaga o'tib yotadi.

Bu gal ham shunday qildi.

Vannaga kirib, muzday dush qabul qilib chiqqan Azimjonni

Ozoda nonushtaga chaqirdi. Stolga kelib o'tirgan Azimjonning yama ko'ngli ag'darildi. Eshikka qarab yugurdi. Ozoda "Ichkilik o'lan-a, shunagayam ichadimi odam",—deganicha javab qolaverdi. Azimjon qaytib kelib, muzlatkichdan bankadagi qatini oldi va bir ko'tarishda yarimlatdi. Endi qaytib o'rninga borib yotmoqchi edi, eshik qo'ng'irog'i jiringladi. Eshikni borib ochgan Azimjonga pochtalxon xotin bir parcha qog'oz tutqazdi va qo'lidagi qog'ozga tez imzo qo'ydirib, ortiga qaytdi.

Azimjon qo'lidagi qog'ozga qaradi. Telegrammaga ekan. "Azimjon tezroq kel Oyimiz yotib qoldi ahvoli og'ir Zokir. 09.06.1988."

Eshikning orgasda poylab turgan Ozodaning sabri chidamadi:

— Ha, dadasi, nima gap? Tinchlikmi? — dedi u xotinlarga xos qiziqquvchanlik bilan. Azimjon indamay telegrammani uzatdi. Telegrammani o'qib ko'rgan Ozoda hammasiga tushundi. Shu topda betob yotgan qaynonasining mushטיפar siymosini ko'z oldiga keltirib, ich-ichidan achindi. Ko'zlaridan beixtiyor ikki tomchi yosh oqib yuziga tushdi. Qo'li bilan yoshni sidirib tashlarkan, oshxona tomonga yurdi. "Boyaqishga xudoning o'zi shifo bersindaa, ishqilib", deya pichirladi.

— Ozoda, darrov bo'l. Yo'lga chiqamiz.

Azimjon shunday deb, tashqariga chiqib ketdi.

Ozoda yo'l tadorigini ko'rarkan, oxirgi marta qishloqqa borganini esladi. O'shangayam uch oy bo'libdi. Yangi olgan mashinasida borishgandi o'shanda. Qaynonasi mashinani ko'rib rosa quvongandi. Chunki qishloqqa avtobus qatnovi yaxshi yo'lga qo'yilmagan, qaynonasi o'g'lining qishloqqa kam kelish sababini shundan deb bilardi. Mashinaning kapotini cho'pday nozik qo'llari bilan sekin silarkan, "O'g'lim, endi qishloqqa tez-tez kelib turgina, men ham g'animat bo'lib qoldim", degandi. Yo'q, qaynonasi o'ylaganicha bo'lmadi. Uch oy o'tib, mana yana o'zlari chaqirtirishi...

Mashinaning ustma-ust bosilgan qattiq signalidan Ozoda cho'chib tushdi. Shundagina xayolga berilib ketganini payqab, shoshilinch ki-yindi. O'g'lini ham ki-yintirib olib chiqqunicha mashina yana ikki marta signal berdi.

Ular yo'lga chiqishganda quyosh allaqachon tepaga kelgan, asfalt yo'ldan esa bir zaylda hovur ko'tarlardi. Azimjon shahar

tashqarisidagi katta yo'lga chiqqach, mashinani chunonam uchirib haydadi, Ozoda mashinaning oynasini bir oz ko'tarishga majbur bo'ldi.

Mashinani tekis yo'lda uchirib borarkan, Azimjon onasini eslatdi. "Nima bo'ldi ekan? Yaqinda borganimda yaxshi ediarku? Yangi mashinamni ko'rib rosa quvongandilar. "O'g'lim, endi qishloqqa tez-tez kelib turgina, men ham g'animat bo'lib qoldim" degan gapini eslatdi. Darhaqiqat, ana boraman, mana boraman bilan uch oy o'tib ketibdi. Azimjon ichida o'zini koyib borarkan, yoshligidagi bir voqea yodiga tushib, beixtiyor jilmaydi.

Ozoda erining bemavrid jilmayishining sababini bilish maqsadida:

— Ha, tinchlikmi? Og'zingizning tanobi qochib qoldi shu paytda, — dedi.

— Shunchaki, o'zim, bir narsa esimga tushib ketdi.

Ozoda eriga tikilib turib, beixtiyor labini tishladi.

X X X

...O'shanda yetti-sakkiz yoshlardagi Azimjon mahalladagi bolalar bilan dalada mol boqardi. Saratonning jarima kunlaridan biri. Tush payti anhora cho'milishga borib qaytgan Azimjonning ko'ngli xira bo'ldi. Sigiri kolxozning bedapoyasida o'tlab yurar, argoni esa yo'q edi. Negadir bu hol keyingi paytlarda tez-tez takrorlanadigan bo'lib qoldi. Bu gal ham onasidan daki eshitadigan bo'ldi-da. Argonni yo'qotgan kunlari onasi kundalik ishlardan bo'shagandan keyin yarim kechagacha koyinib argon eshar, lekin bu ham nari borsa uch-to'rt kunda "egasi"ni topib ketardi. Kechgacha molini argonsiz boqishiga to'g'ri keldi. Kolxozning bedapoyasiga o'rganib qolgan sigir ha deganda o'sha tomonga ketib qolardi. Azimjonning esa sigirni qaytaraman deb rosa tinkasi quridi. Kech kirib, uyga qatayotgan Azimjon, ne ko'z bilan ko'rsinki, serqatnov dala yo'lida kanopdan pishiq qilib to'qilgan argon yotardi. "Hoynahoy, ipini sudrab ketayotgan mol argonini bosib olganu, uning uzilib qolganini egasi sezmagani", o'yladi Azimjon. Bir oz ikitilani u yoq-bu yoqqa qaradi. Atrofda o'zidan bo'lak hech kimni ko'rmagach, argonni olib

sigirining uzun shoxlariga o'rab bog'lab qo'ydi.

Kechqurun sigir sog'ish uchun molxonaga borgan Saodat xola o'g'lini chaqirdi:

"Nima gap?" deya yugurib kelgan Azimjonga onasi sigirining argonini ko'rsatib:

— Nima bu? — dedi.

— Nimani so'rayapsiz, oyi? — deya yaqinroq borgan Azimjonning qulog'idan oyisi chunonam cho'zdi, og'riqdan Azimjon yig'lab yubordi.

— Nima qildim, oyi?

— Qaerdan o'g'irlading?

— O'g'irlaganim yo'q. Axir men uni topib oldim-ku.

Azimjonning kuyib-yonib tushuntirishiga qaramay Saodat xola o'g'lini hatto eshitisini ham xohlamadi:

— Yo'qot, tez ko'zimdan yo'qot! Qaerdan olgan bo'lsang, o'sha yerga qo'yib kel, — dedi-da, negadir o'zi ham yig'lab yubordi.

Azimjon argonni joyiga tashlab kelganida, oyisi o'choq oldida o'tirib, tutab turgan o'tinni tinmay "puf'lardi. Azimjon borib oyisiga qo'shilib bir-ikki marta "puf'lagandi. o'tin birdaniga alanga olib ketdi.

— O'g'lim, bu ishni bir qilding, ikkinchi qilmagin. — dedi oyisi. O'g'irlik qilsang, men bu isnodni ko'tarolmayman, o'lib qolaman.

— O'yi, men axir o'g'irlamadimku uni, — dedi Azimjon sekingina yutunib.

Oyisi:

— Birovning narsasini so'ramasdan olish ham o'g'irlilik hisoblanadi, — dedi. So'ng o'choqdagi alangaga tikilib turgan o'g'lining olov yolg'ini anayotgan yuzlaridan sekin o'pib, bag'riga bosdi.

X X X

Yana birda Azimjon nomzodlik diplomini olib qishloqqa bordi. Unda otasi ham tirik edi. Otasi bilan oyisi o'g'lining olim bo'lib kelganidan rosa quvonishdi. Oyisi o'shanda diplomni olib ko'zlariga surdi-da, o'pib, avaylab ko'ksiga bosdi. Buni ko'rib turgan Azimjon: — O'yi, nima qilayapsiz, axir bu qog'ozku, — degandi.

– Yo‘q, o‘g‘lim, bu shunchaki qog‘oz emas. Bu otang bilan mening g‘ururim, sening esa necha yillik mehnating. Men sen qilgan o‘sha mashhaqqatli mehnatni tavof qilayapman, o‘g‘lim, – degandi.

Otasi esa o‘sha kuni bisotlaridagi bitta-yu bitta qo‘yni so‘yib, qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilarga rosa ziyofat bergandi. Ayniqsa, chol-kampirning davradagilarga o‘ynab berishganini Azimjon tez-tez eslaydi.

X X X

Xayol bilan bo‘lib Azimjon qishloqqa kirib kelganini ham sezmay qoldi. U qishloqning tuproqli ko‘chalaridan sekin borarkan, mashinasiga achinib qo‘ydi.

Mashinasini qadrdon darvozasining oldiga to‘xtatib, hovliga kirganida singlisi Moxira hovliga suv sepayotgan, akasi esa loysupaning labida ko‘zini bir nuqtaga qadagancha o‘tirardi. Azimjon jigarlari bilan tez-tez ko‘rishib, oyisi yotgan uyga shoshildi. Zokir aka uni derazalari lang ochiq, pardalari tushirib qo‘yilgan uyga boshlab kirdi. Oyisi uyning to‘ridagi to‘shakda shiftga qaragancha uxlab yotardi. Uning qoqsuyak bo‘lib qolgan holsiz qo‘llari choyshabga botib turar, ko‘zlari esa ichiga tortib ketgan edi.

Azimjon borib, oyisining holsiz qo‘llaridan tutdi va qoni qochgan oppoq yuzidan sekin o‘pdi. Erining orqasidan salom berib kirgan Ozoda ham qaynonasining yuzlaridan o‘pib qo‘ydi.

Shaharlik o‘g‘lini ko‘zlari to‘rt bo‘lib kutib o‘tirgan Saodat xolani bir oz oldin uyqu elitgandi. O‘g‘li bilan kelinining o‘pichidan uyg‘onib, sekin ko‘zlarini ochdi. Azimjon bilan Ozoda baravariga salom berishdi. Boshini bilinar-bilimas qimirlatib alik olgan Saodat xola o‘g‘liga tikilib qoldi. Azimjon oyisining so‘lg‘in ko‘zlaridagi nursiz nigohdan bezovtalandi. O‘zini aybdor sanab, sarosimalandi.

– Oyijon, tuzukmisiz?

– Yaxshiman, o‘g‘lim. Otangning oldiga ketadiganga o‘xshayman, – dedi Saodat xola.

Eshkning oldida turgan Moxira piqillab yig‘lagancha eshikdan chiqib ketdi.

– Nega unaga deysiz, oy? – dedi Azimjon oyisining qo‘llarini sillab, – hali ko‘rasiz, otday bo‘pketasiz, eng yaxshi duxtirlarga ko‘rsataman sizni.

Saodat xola bir oz jilmayganday bo‘ldi-da:

– O‘g‘ling ko‘rinmaydi, Azamatjon kelmadimi? – dedi.

Ozoda darrov o‘rnidan turib, tashqariga qarab yurdi. Azamatjon mashinadan tushgach, bobosining o‘g‘illari bilan o‘ynab qolgan edi. Ozoda Azamatjonni yetaklab kirdi.

– Mana nabirangiz, oy, – dedi Azimjon. – Azamatjon, qani buvingga salom ber-chi.

Azamatjon dadasining yoniga o‘tirib, buvisiga salom berdi. U buvisining ozg‘in yuzlariga qo‘rqa-pisa tikildi. Saodat xola ozg‘in qo‘llarini uzatib, Azamatjonning qo‘llarini tutdi. O‘ziga tortib bug‘riga bosdi-da, boshlarini silay boshladi:

– Azamatjon, o‘g‘lim, – deb bir oz jim qoldi-da, hansirab davom etdi. – Sen Zokir bobongga o‘xshab duradgor bo‘lg‘in, xo‘pmi?

Hammalari oyisining nima uchun bunday deyishganini tushunishdi. Oyisini shu topda nima deb o‘yinishini bilmag‘an Azimjon esa o‘zini o‘ng‘ayisiz sezib, sekin o‘rnidan turib-da tashqariga chiqdi. O‘rindan chiqib kelgan akasiga:

– Aka, oyimning og‘riganiga qaracha bo‘ldi? – dedi.

– Bir oydan oshdi, – dedi akasi.

– Axir shuncha payt nega menga xabar bermadingiz.

– O‘zing kelib qolarsan deb o‘yladik. Axir qishloqda ham oying, akang, singillaring borigini bilasan-ku!

Azimjon yomon ish qilib qo‘yib, tanbeh eshitayotgan boladek boshini egdi.

– Aka, hali ham kech emas. Oyimni yaxshi duxtirga ko‘rsatish kerak.

Azimjon shunday deya cho‘ntagidan bir dasta pul chiqarib, akasiga uzatdi.

– Mana buni oling, aka. Mening bugun ozgina ishlarim bor, shuni bitiraman-u, ertaga qaytib kelaman.

Zokir aka bir pulga, bir Azimjonga tikildi. Azimjon o‘zini oqlashga tushdi:

– Nima qilay, aka, davlatning ishi, bir minut ham bo‘sh vaqt yo‘q.

Menga qolsa, har hafta kelmasmidim, – dedi.

Azimjon qo‘lida pullarni akasining cho‘ntaklariga solib qo‘ydi.

“Mayli, borqol, ishing onangdan azizroq bo‘lsa, borqol”, deb o‘ylagan Zokir aka ichidagini tashiga chiqarmadi. Ammo ukasiga shunday tikildiki, bu qarashda nafrat ham, afsus ham, achinish ham zoxir edi.

X X X

Azimjonning o‘rtog‘i uch kun oldin nomzodlik ishini himoya qilgandi. Bugun esa shaharning eng hashamati restoranida o‘shani yuvish uchun ziyofat berilyapti. Ziyofatning bugunga qoldirilganiga sabab o‘rtog‘ining amakisi professor Tolmas Sirojiddinov himoya kunlari xizmat safari bilan chet elda edi. Professor kecha safardan qaytib kelgan, bugun esa ziyofat. Azimjon ziyofatda Tolmas Sirojiddinov bilan munosabatlarini quyuqlashtirib olmoqchi edi. Tolmas Sirojiddinov bilan yaxshi munosabarda bo‘lsa, doktorlik ishiga yordami tegadi. Hali akasiga “ozgina ishlarim bor” deganda esa Azimjon shuni nazarda tutgandi.

Azimjon shaharga kelib, mashinani to‘g‘ri o‘rtog‘ining uyiga burdi...

X X X

...Azimjon yuziga tushgan quyosh shu‘lasidan g‘ashlanib uyg‘onganda, kun allaqachon choshgohdan oshgandi. Uning boshi g‘uvillar, vujudi chanaqagan, turishga esa majoli yo‘q edi. Beixtiyor cho‘zilgan qo‘llari tokchadan choyrakni qidiradi. Tokchada esa har doim muzday choyi bilan turadigan choyrak yo‘q edi. Ozodaning qishloqda qolgan yodiga tushib, Azimjonning betlari burishdi. Kechagi kunni bir-bir eshladi: o‘rtog‘ini himoya bilan tabriklagani, o‘yin-kulgi, professor bilan qadah urishtirgani va oyisi...

U o‘rnidan turib, yuviniib chiqdi. Darrov kiyinib chiqdi-da, yo‘lga tushdi. Qishloqqa kirib kelganida esa quyosh tikkaga kelgan, qilt etgan shamol sezilmas, qishloq ko‘chalarda saratonning sokinligi

hukmron edi.

O‘zining qadrdon bolaligi kechgan ko‘chasiga qayrilgach, uylari oldida belbog‘li odamlarni ko‘rib, yuragi ortga tortib ketdi. Miyasiga kelgan dahshatli fikrga esa ishongisi kelmasdi.

U mashinadan yerga qadam qo‘yishi bilan olomon darvoza dan tobut ko‘tarib chiqdi.

Azimjon hammasiga tushundi. U birinchi bor oyjonisini endi hech qachon ko‘rmasligini his etdi va o‘kirib yig‘lab yubordi

– Oyi-i-i, oyi-jo-o-n!!!

U telbalarcha yig‘lab darvoza tomonga yugurdi.

Darvoza ostonasida esa kecha akasiga tutqazgan pullar sochiib yotardi.

*Umud Xo‘jamqulov
19.06.1995 yil*

ASATOVA MADINA NIGMATJANOVA

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 1-kurs

OILA

Ko'z ochib ko'rganim, yer-u osmonim,
Allalab o'stigan nuri bo'stonim,
Bag'ri issiq oshyon obod qo'rg'onim,
Suyanchim onam otam-oila,
Vatan ichra mo'jaz Vatan-oila.

Otam qo'llarida mehnat izi bor,
Onam so'zlarida ibrat ishi bor,
Vatan nomini tutgan og'il-qizi bor,
Barimiz bir jonni bir tan-oila,
Vatan ichra mo'jaz Vatan-oila.

Ilmu hunar istab kam bo'lmadik hech,
Yomonlar ortidan biz yurmadi hech,
Pok niyat-la yashab, g'am ko'rmadik hech,
Quvonchu shodlikka to'lgan oila,
Vatan ichra mo'jaz Vatan-Oila.

Ishonch-oilaning asl ustuni,
Vafo-yu sadogat uning mazmuni,
Mehnatli farog'at quvar qayg'uni,
Elga to'y, nonu tuz bergan oila,
Vatan ichra mo'jaz Vatan-oila.

Barkamol farzandlar shay yurt koriga,
Kam-ko'stini to'ldirar shukur boriga,
Aylansin ular el iftixoriga,
Orzu-havaslari bo'lgan-oila,
Vatan ichra mo'jaz Vatan-oila.

NOYOB GUL

Ishqiboz dil gullardan so'zlar,
O'stiranman xona gullarini,
Zavq oladi boqanda ko'zlar,
Gul ko'tarar bahri dillarni.

Bir kun do'stim gul ko'chat berdi,
Uning nomi "Tikan suyak gul"
"Ekib qo'ygin noyob gul "dedi,"
Ekib dedim: Buncha xunuk gul.

Parvarishlab barcha gullarni,
Ochiltirdim chaman - chaman gul,
Ammo qimirlamay turardi,
O'sha noyob xunuk tikan gul.

Na o'sgandi, na so'ldi ham,
Bu holatdan oshdi hunobim,
Hafsalarni pir qildi shu dam,
Yoqimadim berib yubordim.

Yillar o'tar gullarim yashnar,
Sim qoqadi dugonam Dilbar,
Deydi qaytdim qaritib safar,
Diydor shirin uyiga chorlar.

Bordim ayni sog'inch chog'ida,
Ko'rdim uni shod bo'ldi ko'ngil,
So'ngra sayr etib bog'ida,
Ko'zlarimga tashlandi bir gul.

Juda yorqin, yam-yashil ko'rkam,
Nilufarga o'xshash gullari,
Go'yo mehr suvini ichgan,
Baquvatdir tana shoxlari.

Hatto kichik tikanlari bor,
Shu tikan ham unda beozor,
Bu gul bog'ga ko'rk bag'ishlagan,
Go'yo podshoh etib saylangan.

Ko'rmagandim bunday gul-anbar,
Ishqibozga aylandi ko'ngil,
Hayratimni sezib der Dilbar,
"Bu sen bergan o'sha tikan gul!"

Gulga boqib hayratta o'ychang,
Bu hol menga dars bo'ldi oxir,
Hayotda negadir erishmoq uchun,
Kerak ekan mehr va sabr.

ABD AZOVA VAZIRA YUNUS QIZI

Xorijiy til va adabiyoti (nemis tili) yo'nalishi, 1-kurs

KICHIK SAVOL

Qachon insoniyat ahil yashaydi?
Tobutlar qo'sh qator, ummon tubida...
Nigohdan qochdimi muhabbat qo'rqib,
Balki yashiringan yurak tubiga...

Qachon quvlaydi by shubhani ishonch?
Qachon taskinlikni istaydi to'zon?
Qachon manglaydagi chiziqqa qadar
Yetib bormasligin angelaydi inson?

To'ymadikmikin yo, g'ajib ko'ngilni,
Odamlar ichramiz, odamsizmi biz...
Toki dunyo emish, yo urush ro'yo?
Bor emas, yo'q emas, qadamsizmi biz...

Qachon insoniyat ahil yashaydi?!
Lahzaga zor o'tar umrlar qancha?
Qancha ko'zlar o'tdi izlab nurini?
Go'yo dillarimiz toshga o'xshaydi.

Karvon bir kun sahroda yiqilar, mayli,
Qip-qizil qor yog'ar qahratonda ham,
Mayli, bir kun ilon po'stin tashlaydi,
Qachon insoniyat ahil yashaydi?!

DILDOŠH

Salom Quyosh! Sen ham botibsan,
O'tib keldik yerning ortiga...
O'sha o'zim izlagan makon,
Osuda dil, Panoḥ yurtiga...

Yorug' dunyo ko'zoynagida
Rangsiz tasvir ko'rib nogahon,
Bilsam, har kun bardoshing tugab
Qochib kelar emishsan pinhon...

Qancha dillar sinibdi Bugun,
Qancha tillar so'zladi yolg'on?!
Bilmas edim qanchalar mushkil
Bag'ring to'la olovli fng'on...

Sening yongan yuraging tafti
Kuydiradi tanamni qayta!
Quruq qolar do'stimning kaffi...
Men ketarman chin so'zni ayta.

Sen tomonga. Yo'lim mislsiz
Olis bo'lsa hamki borgun, bas!
Bu dunyoga tashlab anduhni,
Qalb libosi- dunyoga havas.

Ochiq eshik tomon ochiq qalb
Ochib borar mushkulotlarni.
So'ngsiz manzil tomon ochiq qalb,
Qochib borar maxluqotlardan...

Senda bordir go'zallik aks
Sir mulkiga qilarasan hujum...
Inson senga ko'zi yoshlanib
Tik qarolmas balki shuning chun...

ESHITMAS

Osmoneḥa ohimni osmon eshitmas,
Ko'ngilda tug'yonim - to'fon, eshitmas.
O'tranib qalbingiz, o'tranib qalbin,
Yuraklar farvodin bir jon eshitmas.

Hajming har bitta og'irin sanab,
Muhabbat qiliblar ehson, eshitmas.
Ne kerak ekanin bilolmay qoldim,
O'ylarin taqdiri sarson eshitmas.

Jafokor izmiga bo'lib giriftor,
Visoli firoqda makon, eshitmas.
Zakovat birla qo'l bog'lasam butkul
Halovat yo'qolib, me'zon eshitmas.

So'ng egib boshimni egilsam tunga
G'affati cho'kibon, Azon eshitmas..
Ayingiz malhami dardima, yoron
Olami sehidan buyon eshitmas.

Tanbehin yog'dirsa u ahli ziy'o,
Ishq boisi karaxt, biron eshitmas.
Asira o'zimman, yo Rab, mulkingda
Bas! Sendan o'zgasi oson eshitmas...

O' TGULIK

Har kunning oftobin nuri o' tguulik,
Tun bo' lsa ma' lmmas tongi otguulik,
Bog' ida gullarin to' kib ketguulik,
Menga pisand emas bu dunyo guli,
Aying kimga dunyo guli yetguulik?

Sodda hayotimni tahlil qilmanfiz,
Achimmang, iltimos, qalbm tilmanfiz,
Sarsonlikda qolgan ruhim tinglangiz,
So' zingiz yurakdan o' tib botguulik,
Aying kimga dunyo guli yetguulik?

Uchib borolmagan qushning qanoti,
Yetib borolmagan samandir o' ti,
Anglasangiz asli zaharning toti,
Gul deya iymonin olib-sotguulik,
Aying kimga dunyo guli yetguulik?

Men go' zal yashashga intilgan sarim,
Oxirlab boradi umr daftarim,
Izimda qoladi jonsiz xatarim..
Go' yo birovi gulin menga tutguulik,
Aying kimga dunyo guli yetguulik?

Keldi Xon, urdi bong, qozonib dong' i,
Yig' lar kim, kular kim, kim chekar qayg' u,
Qalbingda haqiqat-haqqiy cholg' u!
Ko' rinmas gul tuproq sari botguulik,
Aying kimga dunyo guli yetguulik?

ASHIRALIYEVA GULSUNBUL ILHOMJON QIZI

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 1-kurs

SOG' INDIM

Kelmay qoldi uyqum ham,
Qaydan keldi bunday g' am.
Tomga chiqnadim lekin,
Farg' onani sog' indim.

Safar ham jonga tegdi,
O' zga yurt o' zga endi.
Qaydandir isi keldi,
Farg' onani sog' indim.

Suvlari shirin biram,
Har yog' i go' zal, ko' rkam.
Tog' lari bo' lmasa ham,
Farg' onani sog' indim.

Orgulayin Qo' qondan,
Buvayda, Marg' ilondan.
Poytaxtdak bo' lmasa ham,
Farg' onani sog' indim.

Tandirlarda nonini,
Issiq palovxonini.
E qoyingki, borini,
Farg' onani sog' indim.

Karnay-surnay to' ylarni,
Mehmon to' lgan uylarni.
Qumsab o' tgan kunlarni,
Farg' onani sog' indim.

Qadrin juda sezyapman,
Kun o'tishin kutyapman,
Faqt sizga aytapman,
Farg'onani sog'indim.
Farg'onamni sog'indim!!!...

ILHOM

Mitti yuragimda katta shijoat,
Xayolim band etar ming bitta maqsad.
Qog'oz qalam ushlar beradi g'rom,
Ilhom, tark etmagin iltimos faqt.

Keladi madh etgin quyoshni, oyni,
Tinnay ta'rif etsam shaldiroq soyini.
Topsaydim makoning sen serob joyini,
Ilhom, ketmay turgin iltimos faqt.

Kelgin, kelaqolgin senga mushtogman,
Ko'z yumib izlayman seni har choq man.
Uchqun ber, qalbimdan izlab toparman,
Kelsang ketmay turgin, iltimos faqt.

Shoira deysishar she'rlar kutishar,
Ular balki bilmas, balki bilishar:
Yozmay qoyсам, g'animlarim kulishar,
G'anim kulmasidan yo'qlab tur faqt.

Borimsan, orimsan, g'urur, shonimsan,
Sog'inganim, kutgan chin mehmonimsan,
Kelganda g'am ketar madadkorimsan.

Kelsang, ketmay turgin iltimos faqt
Ilhom, tark etmagin, iltimos faqt!!!

YANGI ASR IXTIROSI

U har doim yonimda qadrdonim, hamrohim.
Quvvati qolmaguncha zeriktirmas o'trog'im.
U bilan yo'lim yaqin, google menga dastyor,
Uning qulayliklari sanasam ko'pdir bisyor.

U bilan yo'lim yaqin, yuklarim yengil bo'lar,
Super pochta xizmatin endi telegram o'tar.
Kitob sotvolish shartmas chipim o'ttiz ikkilik,
Qiyalmay kutubxona sig'dirishga yetguilk.

Sog'insam yaqinlarni watsap xizmatiga shay,
Qadrdonimning yana qay xislatin sanay.
Och qo'ymasam bo'lgani megabayt bilan siylab,
Hech charchadim demaydi, tun-u kun tinnay ishlab.

Quvvati to'lsa bo'ldi yana bardam bo'ladi,
Ozim esdan chiqsam ham u yodimda turadi.
Organdim unga rosa, usiz ishim bitmaydi,
On bir yil qanday yurdim shunga aqlim yetmaydi.

To'g'ri u xo'pam qulay foydalari juda ko'p,
Lekin buvim aytgandek, telfon chalgitadi xo'p.
Nima bo'lsa ham bari tabiiylikka yetmaydi,
Mashaqqati mehnatlar xotiradan ketmaydi.

Kioblarni varaqlab o'qish zavqi boshqadir,
Yaqinlarni quechoqlab o'pish zavqi boshqadir.
Savollarga javobni ustozdan bilgan yaxshi,
Rasmda ming ko'rgandan tabiiy bit ko'rgan yaxshi.

Bu bilan telfonlarni qoralashdan yiroqman,
Sababiki, o'zim ham u-la yaqin o'rtog'man.

ABDUMUMINOVA DIANA ABDUSATTAR QIZI

Qozoq tili va adabiyoti yo'nalishi, 1-kurs

ҚҰБЫЛЖЫҒАН ӨМІРДІҢ ӨЗЕКТІ МӘСЕЛЕСІ ЖАЙЫНДА

Уақыт зымырап өтіп, заман жедел дамып бара жатқан мына заманда түрлі оқиғалар болады. Адам баласы оған қалай тәуелді болғанын аңғармай қалған сияқты. Осыдан бірнеше жыл бұрынғы кездерді еске алайықшы... Жетпіс жастағы қария да, жеті жастағы бүлдіршін де, кітап пен айнала табигат пен сырласып, кең далада асыр салып ойнайтын еді. Кітаптің әр бір бетін ашып, ондағы қызық мәліметтер ел ішін аралап жүретін. Балалар бастарына жастанып дем алатын, көз ашып қайта тұрып жалғасын жалғап оқып кететін.

Араға каншама уақыт салып, жылдар өтті адамның ой өрісі, сана сезімі, дүниеге деген қызығушылығы мен қатар көз қарасы түбегейлі өзгеше өзгеріске жолығып, өзгеше ғалам қалыптасты. «Телефон», «Ғаламтор» деп аталмыш дүние пайда болды. Жай ғана құрылғы немесе нем құрайтын дүние деп қарауға келмейді, адамның ең жақын серігі, ұйықтаса-да, тұрса-да, жүрсе де үнемі қасынан табылатын бұл дүниені бұл құрылғыны «Адам көлеңкесі» - деп атасақ қателеспейміз.

Сөзіміздің дәлелі ретінде, ерте күнде әр қадамда «Қыздың жүгін жинағандай» кітаптарға лық толы тұрған серелер қадам бассақ табылатын болған. Ал қазіргі таңда дәл осы серелер шырайын «Адам көлеңкесі» немесе заманалық гаджеттер жаулап алды. Адамдар одан алшақтап қалса дереу іздеу салып немесе жаңа версиясын сатып алуға ұмтылатын, өз өмірін онсыз елестете алмайтын дәрежеге жетті.

«Ұйықтай алмай жатқанда ең қолайлы дүние ретінде қарастырып яғни кітап оқыса ұйқы келеді» деген сөздерді ести отырып, бұл ғаламда кітаптың орнын басатын зат пайда болды дегенге сенгім келмейді. Алайда, кез келген адамнан – Сонғы рет қандай кітап оқыған едің?» - деп сұрақ қоюдың қажеті жоқ

ебейді. Керісінше «- Сонғы рет қандай гаджет пайдаландың?»- деген сұрақ қойып жатсақ, алдына жан салмай, аузы толып айналатыны өзгетінді өртейтіні өкінішті ақ...

Дегенмен теңгенің де екі беті болады демекші, ғаламтор мен гаджеттің зияны мен пайдасы қатар бар. Жердің түкпір-түкпірінде орналасқан адамдардың хабарын жылдам жеткізетін ең қолайлы да ыңғайлы таптырмас дүние болды. Мұндай қоғамдық, мұқтаждық осындай таңғажайып құрылғының өмірге келуіне себепші болды.

Ол дүниенің артын қуып, өткінші арбауларына сенімартып келіп, адамзат атаулысына жұмыс санын қысқартып бергені мен қатар миымыздың әлсіретеп, дамуы үшін үлкен тосқауыл қойып жатырғанды біріміз білсек, біріміз белместі. Денсаулық пен бірге сана – сезіміз, ой-өрісіміздің әлсіз жағдайға келуіне айқара белетерді ашып жатырмыз...

Мына, жаңадан жалғыз үлкен ғаламда өлшеулі ғана өмір сүретініміз нақты факт. Нәліктен, біз уақытымызды өзге бір жанға дүние артындағы өткінші, жасаппаз әлеммен ұштастыру керекпіз, нәліктен біз, ең алдымен өздігімізді ұмыттып бара жатырмыз, нәліктен біз, мейірімділік пен адамгершілік атаулы адамзаттың ең асыл қасиеттерінен алшақтап бара жатырмыз, нәліктен біз, кітаптың ішіндегі фактілерге күдікпен қарап, ғаламтор ішіндегі кез келген дүниесіне үлкен сенімділік артып, дұрыс деп қашанда жақтап шығамыз?!

Өкінішке орай, орын алып жатқан жағдайлардың акыр соңы жақсылыққа алып келмейтіні рас. Адамзаттың ең құнды қасиеттерін арылып, өздігімізді ұмытып бара жатқан сияқтымыз.

Қорыта келе айтпавым, адамзат ешқашан да уақтыңша дүниелерге құмарланбай, «түкке тұрғысыз» өткінші әлемге мұныменбауы қажет. Алтыңға тең уақытымызды, еліктеулі өмірге баса көктеп назар салуға жұмсамай, түпсіз терең тұнғылық бағинағына түсіп, жарық әлем таңғажайыптарынан ерте сансоғып көлемейік.

Ғаламтор адамзатты емес,
Адамзат ғаламторды өз арнасына тоғыстырсын!

ҮРЕЙДЕН ҮМІТ БАСЫМ БОЛСЫН!

Өмір! Адам өмірге келеді, туылған сәттен бастап, арқашан әрнесте ұмтылып өмір сүреді. Барлық заттарды білуді, ұстап көруді, неше түрлі құбылыстарды үйренуді қалайды. Адамзат қызығушылықтарын қандыру мақсатында өмірдің ащы да тұщы белестерін көріп өседі.

Тұла осындай белестер арасында, бағындырар сәттерде неше түрлі адамдарға кезігеді. Арам жолмен, арамдықпен ұрлап-қарлап мал табатын керісінше, өз мандай терімен, адал еңбек пен нан жейтін, адал достармен қатар өткінші таныстықтардағы жандарды көре өмірден сабақ алып өтеді.

Ал енді төрт мүшесі толық, дені-сау адамдарды қарастырған сәтте олар үнемі өмірден налып, өксінумен ғана өмір сүреді екен. Керісінше, мүмкіндігі шектеулі, қаншама науқас, мүгедек жандар бұл өмірден тек қана үлкен үміттермен яғни "ертең танда сауығып кетер ме екем?", "менің орындалмаған мақсаттарым талай, оның бәріне үлгере алар ма екем?" тағысын-тағы да ойындағы ізгі үміт ұшқындарымен жасайды екен.

Осыдан келіп шығып біз, жұмыс бастар алдында үнемі оның жаман тарапын ғана қарастырып, қорқынышпен бастаймыз. Сенімсіздікпен, үреймен бастау алған шаруадан қалайғана нәтиже күтеміз? Алдымен адам өзінің қолынан бәрі келетініне толықтай, қаміл сеніп одан әрі қарай, ол бастамадан тек жақсылық, үлкен нәтижеге жететіне үміттеніп қолқа салу керек деп ойлаймын. Өткінші де жалған паниден неліктен үрей мен өмір сүруге тиіспіз? Өмірден налып немесе өксінуден еш наф таппаймыз!

Сондықтан, біздің әлеміміз, өз өміріміз гүлдеп жайнауы үшін, алдымен ойымыздың түкпір-түкпірінде жатқан барлық пингыл, арам ойлардан, сонымен қатар тұрлы қорқыныш, үрей секілді барлық түйткілсіздерден тазартуға асуғымыз қажет! Міне дәл осындай қасиетті рамазан айыны пайдалана отырып, бүкіл дүние қарасымызды жанартып, ішкі жан-дүниемізге жарық сәулесін таратайық! Үрейден үміт басым болса ғана дiттеген мақсат-мұратымызға еш тосқауылсыз жете аламыз!

ТҰҒЫРЫ БИІК-ТҰҒАН ЖЕР!

Туған жер... Бұл сөзде қаншама сезім, қаншама адалдық, қаншама махаббат бар десенші? Сол сезімдер кейде, әр біріміздің жанымызды керней түсетіндей көрінеді. Туған жердің әрбір көшесі мен даласы, жазықтығы мен жайылымы тіпті ұсақ-түйек тастарына дейін біз үшін аса бағалы. Туған жердің сарқыраған өзендері, мөлдір тұнық көлдері, биік-биік шыңдары, жазира-жарқын даласы жаныңды шын мәнінде тыныштыққа бөлейді.

Біздің еліміз-Өзбекстан Республикасы бүгінгі таңда даму стратегиясының негізгі бағыттары бойынша көптеген мемлекеттерден алда келуде. Мұның басты себебі деп-еліміздегі жаны жайсаң жанашыр, нағыз патриоттық сезімі өршіп тұрған патриоттық жандардың жасаған еңбектерінің жемісі деп білемін! Бірақ біздің мемлекетімізде де, қашанда осындай төуелсіз, бейбіт әрі тыныш болған емес. Әр елдің болмыс тарихында, қаншама қиын-қыстау кезеңдерді бастан өткерді. Сол сияқты біздің еліміздің басынан да түрлі ауыртпалықтарға толы күндер, тарих беттеріне түскен әжімдей, әр адамның есінде мәңгі өшпес із қалдырды.

Біздің ата-бабаларымыз түрлі қан-құйлы соғыстардың куәсі болды. Олардың ішінде ең соңғысы "Ұлы отан соғысы" болды. Бабаларымыздың соғысқа қатысқандағы басты мақсаты - ел тыныштығын сақтаумен қатар жас ұрпақтың бейбіт өмір сүруі еді. Осылайша аттың жалында, түйенің қомында жүріп, біздерге бейбіт өмірді орнатып берді. Тек майдан тұсында ғана емес, тылда жұмыс жасағандардың да еңбегі жоғары ілтипатқа ие болды. Себебі, олар соғыс кезеңінде майдан шебіндегі солдаттармен бірдей қиыншылық қанын бірге ішкен, бірдей аяқ шеккен. Ашаршылық пен ауыртпалықты бастан өткерген олар да, жеңісті жақындауға көп үлес қосты. Танның аттасынан, күннің батысына дейін, тізе бүкпей қызмет еткен еол бір қайратты да, қайсар жандарға да бүгінгі ұрпақтың ризашылығы шексіз! Үлкен қауіп пен қатер, қайғы мен қасірет тоңған ауыр уақытта, біздің халқымыз сынанан сүрінбей өтті. Оттан да ыстық Отан үшін от кешкен майдангерлер, өшпес мәңгі із қалдырды. Уақыт өте келе, бабалар мұрасының маңызы

артып келеди. Олар кѳресткен ерлїктерї, кайратты да кайсар жандардын бѳрїне бѳгїнгї жас ұрпақтың ризашылыгы шексіз! Үлкен қауїп пен қатер, қайғы мен қасїрет тѳнген бїр уақытта, бїздїң халқымыз сыннан сүрїнбей өттї. Бұл жағдай тарихқа мѳнгї өшпес алтын ерїптермен жазылды. Олардын қаһармандық енегесї барлық жастардын жадында өмїр баки сақталады.

Жайнай бер, гүлдене-өсе бер, дами бер нұрға толы- Жаннан мекенім!

БОТЇРБОУЇҢ ҒАРҒУХ РАУЗИВУУ О'Ў'Л

O'zbek tili adabiyoti yo'nalishi, 2-kurs

ОТАМГА

Soya-yu salqında o'tirsam,
Ko'zimga bir talay yosh keldi.
Xayolimga issiqni sovuqda,
Olam deb ter to'kkan otam keldi.

Bilmasdim odamlar pitini,
Bilmasdim odamlar zo'ini.
O'zing art ko'zimning yoshini,
Xudoyim asragin otamni.

Bir marta qo'lini ko'tartmay,
Shunday katta qildi bizlarni.
Bitta iltimosim bor, Xudojon,
Asragin sen doim otamni.

Gerdayib ko'chada yurishim,
Tinimsiz ijodlar qilishim.
Hayotda haqiqiy boyligim,
Sen asra Xudojon otamni.

Yonimda yursinlar otam ham,
Iqbolim ko'rsinlar onam ham.
Sen bergan men uchun yaxshi mukofot,
Xudoyim asragin otamni.

YAXSHI HAM SEN BORSAN

Oyog'imga tikanlar sanchilganida,
Do'stlarim yonidan turtkilaganida.
Hayotda borligim g'am keltirganda,
Sen uchun yashagim keladi bir bor.

Boshimni eggayman qibla tomonga,
Ismingni aytib bu katta samoga.
Hayotda borliging uchun ham, sanga,
Sen uchun yashagim keladi bir bor.

Yaraldi qancha iymoni yo'qlar,
Yaraldi qancha hayoti yo'qlar.
Yaralab qancha, qancha ko'ngillar,
Sen uchun yashagim keladi bir bor.

Istig'for aytсам nomingni aytib,
Sening uchun ko'z yoshlar to'kib.
Atayin seni, seni sog'inib,
Sen uchun yashagim keladi bir bor.

Umrin ham o'tib boradi shunday,
Sening borliging menga taskinday.
Yaxshi ham hayotni angladim birday,
Sen uchun yashagim keladi bir bor.

Tilim nomingni aytgani uchun,
Umrinni mazmunli o'tkazish uchun.
Yolg'onni rost so'zdan farqlashim uchun,
Sen uchun yashagim keladi bir bor.

DO'STLARIM

Yaxshi va yomon kunlarda ham,
Oy chiqmas qop-qora tunda ham.
Qondoshlar yo'qlamas damda ham,
Yaxshiyam siz borsiz, do'stlarim.

Dushmanlar malomat qilganda,
Bu tanam loylarga botganda.
Ko'zindan yoshlarim oqganda,
Yaxshiyam siz borsiz do'stlarim.

Birining ismidur Mahmudjon,
Birining ismidur Olimjon.
Senga kim kerakdir shoirjon,
Yaxshiyam siz borsiz do'stlarim.

Yiqilsang yoningdan suyarlar,
Ish bo'lsa yo'q demay qilarlar.
Men uchun jonlarin berarlar,
Yaxshiyam siz borsiz do'stlarim.

Xudoga shukrlar qilarmen,
Qo'llarim siz tomon ocharmen.
Kelsangiz yonimga qucharman,
Yaxshiyam siz borsiz do'stlarim.

Hayot deb atalgan bo'stonda,
Men ham bir banda-da, inson-da.
Faruxbek sizni his qilganda,
Yaxshiyam siz borsiz do'stlarim.

SEVAMAN

Hayotdan tonib, sevgida yonib,
O'zimdand qizg'onib sevaman sizni.
Aytсам ham qo'shiq, siz uchun jo'shib,
Ko'zdan yosh to'kib sevaman sizni.

Men sizga borsam, ishqini aytсам,
Yurakdan sevib, sevaman sizni.
Aytaman birbor, tinglang, ey dildor,
Fartuxda qalb bor, sevaman sizni.

Hayot ham o'tar, yoshlik ham ketar,
Shu damlarda ham, sevaman sizni.
Ojiz deb bilmang, qonlar yutirmang,
Umrin o'tkazmang, sevaman sizni

Kulsakda birga, yig'lasak birga,
Hayot shugina sevaman sizni.
Dil izhorimni qilayin qisqa,
Faqat birgina — sevaman sizni.

BAXTIYOROVA RAYXONA DILMUROD QIZI

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 1-kurs talabasi

GUL VA BULBUL

O'rik gullariga burkandi bog'lar,
Mudroqdan uyg'ondi dala va tog'lar.
Bahor tarovatini ko'rsatib yana,
Qushlarga to'libdi gullagan shoxlar.

Ayni bahor fasli tug'ildi bir gul,
Iforin taratdi butun o'tloqqa.
Unga oshiq bo'ldi sayroqi bulbul,
Qo'rqmadi, yuragini ehsan etmoqda.

Ular baxtli edi, shom-u saharda,
Gulning paydo bo'ldi ikki ildizi.
Baxtdan quvonardi go'zal bahorda,
Bulbul navosida aylagan dil so'zi.

Bir-birini asrab-avaylab yashab,
Baxtga to'la edi hatto tunlari.
Lekin yarmi qora, yarmi oq bashar,
Uzoqqa bormadi baxtli kunlari.

Bir kun ovchi kelib, bulbulni otdi,
O'sha kun o'tloqda to'xtadi navo.
Bu tun gulni ayiq bosgandek yotdi,
O'tloqda esmadi birorta sabo.

Ikki tomir gulni ushladi mahkam,
So'lishga, ketishiga imkon bermadi.
Gulning xayolida bulbuli hardam,
O'zga qushlarga hech ifor sochmadi.

Bu bahor faslida yashadi-kuldi,
Endi shu yod bilan birga visoli.
Gulning sadogatin butun bog' ko'rdi,
Shundan beri bu gul vafo timsoли.

Gul-Zulfiyaxonim.
Bulbul-Hamid Olimjon.
Ikki ildiz-Hulkar va Ohmon
O'tloq-Dunyo.

IKKI CHUG'URCHUQ (MASAL)

Daraxtning shoxida ikki chug'urchuq,
O'tkan ketkanlarni g'iybat qilarmush.
Der emush: "Mallavoy, nammuncha puchug,
Kuchukning egasi uydан quvganmush.

Bulbul ovozidan ayrilib bu kech,
Sayrolmay qolgannush bo'g'ulib rosa".
Ikki chug'ur lab charchamadi hech,
Qarg'a kar bo'lganin qildi ovoza.

Govmushning bolasi kasalligini,
Ayiqling panjasi asalligini.
Bir-biriga tinmay aytishib mish-mish,
"Anov eri bilan urushib qolgannish.

Tush payti ikkisin tez qorni ochib,
Yemish izlagani chiqdi chorboqqa.
Oson yemish izlab shudgorga borib,
Qilmish jazosi-mi tushdi tuzoqqa.

SHOH VA SHOIR

Shoh va shoir – buyukligi isboti,
Dillarda barhayot yashaydi yodi.
Turkiston va Hindistonning oftobi,
Qalbida ezgulik yashagan bobom.

Jumla jahonning hayratin qo'zg'ab,
O'n ikki yoshida taxtda nuq so'zlab.
Butun bir xalqning manfaatini ko'zlab,
Dunyoni hayratga to'ldirgan bobom.

Farzandin shunchalar awaylab suyib,
Dardin oldi o'g'lin qoshida kuyib.
Dunyodan ko'z yumdi sog'inchini yutib,
Har so'zi yurakdan aytilgan bobom.

Bir qo'lida qilich, birida qalam,
Tojmalalni eslab og'riydi yaram.
Bobur ham yashadi qalbida alam,
Sog'inchim she'riga joylagan bobom.

Sheryurak o'g'lonlar unga izdoshdur,
Bobom ko'ngli bilan ko'nglim sirdoshdir.
Biz uchun doimo navqiron yoshdir,
Umrubod yurakdan o'chmagan bobom.

XAYOL

Har kecha ko'kka chiqib,
Osmonu falak quchib.
Osmonda uchib-uchib,
Yulduzlarda yashayman.

Tashvishlardan uzoqda,
Falakdagi bir bog'da.
Mana hozir shu chog'da,
Yulduzlarda yashayman.

Barcha qo'shnim ijodkor,
Inoq yashar do'stu-yor.
Sabr, mehr bari bor,
Yulduzlarda yashayman.

U yoqlarda yolg'on yo'q,
Xiyonat yo'q, g'iybat yo'q.
Shuning uchun ko'nglim to'q,
Yulduzlarda yashayman.

Ijodkorlar hokisor,
Hech kimda yo'qdir g'ubor.
Aytaman, yana takror,
Yulduzlarda yashayman.

Tong otib, yulduz qochsa,
Yana yerga tushaman.
Kech bo'lib quyosh botsa,
Yulduzlarda uchaman.

ERGASHEV KOMRON YO'LCHIVOIY O'G'LI

Pedagogika va psixologiya yo'nalish, 1-kurs

BESH SONIYA ICHIDA...

Besh soniya ichida dunyo bo'yicha,
Sakkiz kishi o'lar ekan o'rta hisobda.
Balki uning biri menman, balki biri siz,
Kim o'ladi, bilolmaymiz ayni shu tobda.

Shuning uchun oilangizga, do'stlaringizga,
Sizni yaxshi ko'raman-deb baralla ayting.
Uch kunlik dunyoda quvonib yashab,
Kimgadir azoblar berishdan qayingil!

Arazlashgan bo'lsangiz yoringiz bilan,
Aybdor u bo'lsa ham, kechirim so'rang.
Chunki bir kun kelib, boshga tosh urib,
Ming afsuslar qilib, aytasiz attang!

Omonat dunyoda chiroyli yashang.
Toki hamma ko'rib, qilishsin havas.
Unutmang foniyisiz, mangu emassiz,
Shirin so'zni aytamang, aslo bir nafas.

Men ham soniyalik umrimni o'ylab,
Shu she'rni yozyapman, hayotdan jo'shib.
Hech ish qilmasam ham sher yozib qolay,
Garchi bermasa ham bir hayot qo'shib.

Olimimdan keyin, tanish insonlar,
Ortimdan o'zicha nima desa der.
She'rini sen aslim-u naslim haqida,
Ruhimni shod etib, to'g'ri xabar ber!

SEN BILSAYDING...

Sen bilsayding mening senga zorligimni,
Sen bilsayding bir erimas qorligimni.
Bilsang edi sen deb kechib bu dunyodan,
O'z umrimga – hayotimga dorligimni.

Sen bilsayding sen haqingda kuylashimni,
Sen bilsayding har kun seni o'ylashimni.
Bilsang edi she'rlar yozib yuragimdan,
Senga emas yulduzlarga so'yashimni.

Sen bilsayding ko'nganmni muzlaringga,
Bahordirman sinig bog'li kuzlaringga.
Rozi edim taqdirimdan, telba bo'lsam,
Lekin meni mushoq qilma yuzlaringga.

Beg'uborlik aks etardi nozlaringda,
Kuylasayding, men oqsaydim sozlaringda.
Qishda seni asrab mudom izg'irindan,
Parvonadek yonsam edi yozlaringda.

O'likmanmi, tirikmanmi, bilolmayman,
Unut dema, buni zinhor qilolmayman.
Dilimdagi senga bo'lgan muhabbatni,
Avaylayman, ishon, aslo tin olmayman.

She'r yozaman qonim bilan, qalam - pichoq,
Va otaman alangaga quehoq - quehoq.
Chunki sensiz ma'no yo'qdir hayotimda,
Topolmadim she'rdan o'zga bir ovunchoq.

Nigoronman, sen dilimning darmonisan,
Ushalmagan sevgimizning armonisan.
Boshqalarga kimligingni bilmadim, lek,
Sen Komroning hayotisan, har onisan.

Sen bilsayding mening senga zorligimni
Sen bilsayding muhabbatga xorligimni
Bilsang edi men bo'lardim baxti inson:
Sevgi izlab topolmagan yorligimni...

CHIROYING BIR PUL

Tabiatning keng qo'ynida erka o'sgan gul
Soyang bilan yuzlarimni erta to'sgan gul,
Bitta qiziq gap aytaman, mayli kulsang kul:
Gar odobing bo'lmasa, chiroying bir pul

Oshiqdaring jamolingga shaydo, darbadar
Lekin ular bo'lolmaydi Majnuning qadar,
Buni doim yodingda tut har dam, har safar
Gar vatoying bo'lmasa, chiroying bir pul.

Go'zallikda yagonasan harn, aslo kerilma
Esingni yig', xayollarga guldek berilma!
Shu she'rinni ming bor o'qi, zinhor erinma,
Gar iboying bo'lmasa, chiroying bir pul

O'z husningga oshiq kabi osmonda yurma,
Majnuningga zulm qilib, mazaxlab kulma,
Bunday "shirin" so'zlaringa labingni burna
Gar hayoying bo'lmasa, chiroying bir pul.

Esingga sol, mendan o'tdi qanday bir xato?
Baralla ayt!, o'ylab shuni bo'lyapman ado,
Bir qiyo boq, bu holimdan afzalroq gado,
Gar shafqating bo'lmasa, chiroying bir pul.

Senga cheksiz baxt tilaydi otang-u onang
Lekin seni yo'ldan urar do'sting-dugonang
Men aslida kimman o'zi? xasta devonang
Gar iffating bo'lmasa, chiroying bir pul.

Hazil-huzul, bekorchilik sen uchun rohat,
Ko'p noliysan, sinovlarga qilolmay toqat,
Dangasalik sening do'sting, insonga ofat,
Gar g'ayrating bo'lmasa, chiroying bir pul.

Telbalarcha sevimimga parvoying falak,
Tosh qalbingni eritmoqqa bu jonim halak
Bag'ritoshlar sultonisan, ey! zolim malak!
Gar vijdoning bo'lmasa, chiroying bir pul.

Oshig'ingdan yuz burarsan, qilmay qanoat,
Boshing sajda ko'rmasligi azaliy odat,
Senday "gulga" dil bermaslik ulug' saodat
Gar iymoning bo'lmasa, chiroying bir pul.

UCHQUN VA TOMCHI

Bir uchqun tomchini sevib qolibdi,
Ayibdi: -"Seni deb yonishimga boq"
Tomchi ham uchqunni sevarkan, ammo,
Ayibdi: -"Nafratingiz ishqdan yaxshiroq"

Uchqun:
Nega unday deysan, sevmaysanmi yo?
Tomchi:
Sevaman, lek sevgimiz sarobdir, ro'yo!

Uchqun:
Sabab nima, nechun sevgimiz sarob?
Tomchi:
Sevsangiz, ishqimda bo'larsiz xarob!
Uchqun:
Menga sevgim og'ushida jon bermog' sharaf
Tomchi:
Yo'q sevgilim men o'zga-yu, siz boshqa taraf

Uchqun:
Mayli ishq deb halok bo'lay, vaslingga yetay
Tomchi:
Tushuningiz: ilojisiz bir ajalman netay?

Uchqun:
Mayli ajalim bo'l, zinhor, yuz burma, ammo
Tomchi:
Tabiatning qonuni shu, shudir muammo

Uchqun:
Sevgimni rad etma, mangu fidoying bo'lay
Tomchi:
Yo'q sevgilim halok bo'lmang, nido'yiz bo'lay

Uchqun:
Makor dunyo buncha razil, buncha teskari?
Tomchi:
Menga tanho siz keraksiz, qalbim gavhari

Uchqun:
Qarorim bir, sevdim seni yolg'izim, gulim
Tomchi:
Yaqinlashmang!, meni sevmog' siz uchun o'lim!

Uchqun tomchioniyi bosib bag'riga
Sevgisiga qurbon bo'lib, so'nib qolibdi.
Tomchi uchqun uchun yig'labdi rosa
Muhabbatning iqroriga ko'nib qolibdi.

ELMURODOVA MUHABBAT DILMUROD QIZI

Rus tili va adabiyoti yo'nalishi, 1-kurs

INSON UMRI

Inson... Inson... va yana inson. Inson xohlasa hamma narsalarni qila oladi, inson xohlasa jabr qilaoladi, inson yaxshi ko'rsa sevganlari uchun qayg'uradi. Odam shunday jumboqlarga egaki, uni tushunib bo'lmaydi.

ALLOHU AKBAR...AZON...

Oh qanday jumboqli, siri olam, insonni o'yga soladigan azon. Ertalabki tong... mayin shabboda, muattar gul hidi. Yuzni mayin shabbada derazani ochganingdan erkalaydi. Do6poe yupo... turinglar ishing barakasi etalabda. Eh uyquchilaree. Derazani oldiga o'yga toldim. Men o'n sakkizga kiribmana men nima qila oldim. Aytehi? Dastlabki yutu'ing institut talabasi bo'lding yana nima qila olding? Hech nima. Nega harakat qilmading bundanda katta yutuqlaring uchun. Men axir ota-onasining eng sevimi qizi edim-ku, hamma narsa o'zingning qo'lingda edik-u, foydalanmadingmi? Dada, men qilaolaman deb bir marta katta maqsadlarda harakat qilmadingmi? O'n bir yil maktabdachi, nima uchun o'qiding; hozirchi qay maqsad uchun o'qiyapsan. Dadangga bir marta "yaxshi ko'raman", dedingmi, qachon aytganding. Ha, esladim; dadam ishdan kelganlarida olti yoshimda. Undan keyinchi: Yo'q.

Dadajon, oyjon, sizlarni yaxshi ko'raman ... deb hayqirgim keladi, ammo men uzoqlardaman. Musofirlik haqiqiy musulmonlik ekan. Qanchadan qancha savollar bor bularni bersam, hech nima qilaolmapan. O'n sakkiz yil umrim qayerga ketdi, birinchi marta shu savolni bugun berdim-a; nega aynan bugun o'yilading?!

Nimalar haqida o'yilaysiz? Bugun ertaroq borishimiz kerak darsga. Uprinet. Uprinet. 3dparcty're. Dars boshlandi.

Domla: Uyg'a berilgan vazifani qilib kelinglarni?

Talabalar: O'zbek tilidan nima berilgan edi?

Bilmaymiz, nima edi, deb pichirlashdi talabalar.

Shahrizoda: Insho yozish kerak edi. Qanaqa insho?

Mehrimoh: Umr haqida

Domla: Xo'sh kim yozdi?

Usto'z men javob beray, -

- Mehramat, Mehrimoh eshitamiz.

... Chapiring nega javob beraman deb javob bermaysiz?

Hurmatli domla, men umrimda hech nima qila olmabman. Men o'n sakkiz yil hayotimga hech, nima qila olmabman. Shu javobim o'tiring.

Domla: Kim aytadi barakalla, kim aytadi, yana? Yaxshi hammalaringizga barakalla.

Mehrimoh, endi siz turingchi? Nega, hayotimda hech nima qilaolmadim, dedingiz?

Domla meni hurmatsizligim uchun kechiring. Men o'n sakkiz yilda hech nima qilaolmadim.

Qilolabga ham urinmabman. Havas qilib qilibman. Xasad qilibmanu, u shunday bo'lolmabman. G'iybat qilibmanu, o'zinga boqinmabman. Ko'rolmabmanu, hech o'zimni boshqalar o'rniiga qo'ymabman. Dunyodan uolbmmanu, lekin hamma narsa o'zinga bog'liqligini bilmanman. Hayotda qoqilibman-u yig'laguncha turmabman. Olamda mehr muavvat nimahligini bilmanman. Har doim boshqalardan ayb topishni bilbmmanu, yaxshilikni izlamabman. Meni yaxshi ko'rishlarini xohlamannu, ammo o'zim yaxshi ko'rolmabman. Yordam beribmanu, yordam olmabman. Hatoki, umrimda bitta kitob o'qinabman. O'zimni dunyodan olinmabman. Hayotki, umrimda bitta kitob o'qinabman. O'zimni o'zgartirishga harakat qilmanman. Domla, hayotim shulardan iborat. Shunda domla audioloyaga yuzlandi, hamma aslida hech nima qilaolmabman, degan savolni berib, boshlarini egishib o'tirishardi.

Aziz farzandlarim, hurmatli talabalarim, bolalarim to'xtash kerak emas. Hayotda o'tgan narsalarni o'yilab kelajagingizni ham shu savol o'yilab to'xtatmang. Eng muhimi tushunib yetkaningizdir. Hayotning bu yog'iga maqsadlarni go'zal qilaylik. Eng avvalo, bir narsadan boshlang onangizga otangizga telefon qilib yaxshi ko'rishingizni aying. Keyin maqsadlarni birga qo'yib, yo'limizni sharoit on qilamiz. Oltinsh ga ellik yoki yetmish ga kirganingizda o'zanda afslanmaslik uchun turish kerak. Qo'lingizdan kelganicha harakat qiling, ming bora yiqilsangiz, bir ming bir albatta erishasizlar. Inaotus bo'ldi tushundiglar-a xayr, talabalarim sizlarga ishonaman.

Ey, yurtdosh sen nima qila olding, nimaga erishding nimadan farqlandig, nima uchun umringni o'tkazding. o'yilab ko'r bekor kelgan bo'lsa hali kech emas. Erishtgan bo'lsang eng baxti inson senman. Yana harakat qilishdan to'xtamasa bu Vatan sen-u harakatlardir!!!

JO'RABOYEVA O'G'ILLOV FURQAT QIZI

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 3-kurs

ONAMNING AYTGANLARI

Nodonlarning gaplariga quloq solsang,
Yuzda erta ajin bo'lar tizim-tizim.
Senga maslahatni beray agar olsang,
Har narsani oxirida bersin, qizim.

Oллоҳ ko'rar kim yaxshi-yu kim yomon,
Gap kovlana, chopma g'iybat, tuhmat tomon.
Yaxshi kunlar ko'rarmizda tursak omon,
Har narsaning oxiridan bersin qizim.

Boshinganga tayvoq kelsa qilma parvo,
Bu tayovni o'zgalarga ko'rma ravo.
Faqat mehr degan joydan olgin havo,
Har narsaning oxiridan bersin qizim.

Baxillarga Egam aslo baxt bermaydi,
Qator-qator tillo marjon taxt bermaydi.
Sandiq to'la seplari qizga baxt bermaydi,
Har narsaning oxiridan bersin qizim.

Ortimdan hech yomon nomlar qolgani yo'q,
Qayga borsam omadlarga to'lar izim.
Yorug' kundan – Kelajakdan bu ko'nglim to'q,
Har narsaning oxiridan bersin qizim.

SIZDAN ILTIMOS

Ham yig'latib, ham Siz kuldirib,
Yuragimni etmang sadpora.
Ishonchimni butkul o'ldirib,
Xiyonatlar etmang ming bora.

Qilib turing Meni ham ogoh,
Qaylardasiz? Eh, kuni bilan.
Yogangizdan soch topib nogoh,
Yig'lab chiqmay, jim, tuni bilan.

Mastonaga mast bo'lmang jonim,
Ul go'zallar qo'lidan tutmang.
Sog'inchlarda o'tmasin onim,
Sizni kutsam Siz uni kutmang.

May taminini ko'rmang hech totib,
Uyga kelmang tunlari sarxush.
Tun keladi so'ngra tong o'tib,
Men ko'rmayin azoblarni tush.

Yuraginga qo'nmasin g'ashlik,
Astrang meni bahor-kuzda ham.
Tark etsada bizlarni yoshlik,
Seving, hatto to'gson-yuzda ham.

Tongimizni yoritisin quyosh,
Doim yuring to'ldirib yonim.
Ko'zlarimdan ogizmang hech yosh,
Men Siz uchun asrayman jonim.

* * *

Yiqilsang ham kulsang ham,
Yig'lasang ham kulsang ham.
Yolvorsang ham yursang ham,
Hayot davom etarkan.

Joningdan to'ysang ham,
Dard alamni so'ysang ham.
O'z holiiga qo'ysang ham,
Hayot davom etarkan.

Qololmayсан to'xtatib,
Turmas bir joyda qotib.
U chopqillar sen yotib,
Hayot davom etarkan.

Boshingga tushar kulfat,
Tushar og'ir musibat.
Kelsa ham katta ofat,
Hayot davom etarkan.

Aldar seni yumushing,
Tugamaydi hech ishing.
O'taverar yoz-qishing,
Hayot davom etarkan.

Eh, Insonga jabrda,
Sinar bizni sabrda.
Yotsak hamki qabrda,
Hayot davom etarkan.

YIG'LAYDI DUNYO

O'z ko'ksini urib timdalar,
Yurak bag'rin tig'laydi dunyo,
Yomon emas asli bu hayot,
Yomonlardan yig'laydi dunyo.

Tuhmatlarni yog'dirar to'p-to'p,
Ko'zginangga qarab tig'ar cho'p,
Rosti kamroq, ammo juda ko'p
Yolg'onlardan yig'laydi dunyo.

Beshigidan turmagan orzu,
Qadam tashlab yurmagan orzu,
Bir teskari aylanib mangu,
Armonlardan yig'laydi dunyo.

Yurgan yo'lda eshitib ta'na
Qoqiladi yana va yana
Na uyi bor na bir boshpana
Sarsonlardan yig'laydi dunyo.

Kir qidirar chug'alab tirnoq,
Har so'zlari g'ayrli so'roq,
Haqiqatdan olis va yitroq,
Gumonlardan yig'laydi dunyo.

Yetimlarning haqqini yegan,
Begunohni ham tepib, urgan
Gunoh qilib yana tik yurgan
Omonlardan yig'laydi dunyo.

YULDUZLAR

Yulduzlar Siz aying mening qismatim
Barcha dardlarimga guvoh o'zingiz
Sizning shulangizda bitganman xatim
Menga sado bering, tinglay so'zingiz.

Yulduzlar samoning porloq nurlari,
Yo'limni yo'qotsam yoqdingiz chiroq,
Meni olib ketmang jannat hurlari —
Yulduzlar men sizdan ketmayman yiroq.

Yulduzlar menga ham bitkalom aying,
Javobsiz qolmasin mening so'zlarim
Siz olisga ketmang yonimga qaying
Kun bo'yi osmonda mening ko'zlarim.

Hozir tong otmogda, chiqmogda quyosh,
Qanday o'tkazaman sizsiz bu kunni
Oftob o'z ufqiga tezroq qo'ysin bosh,
Sizni ko'rmoq uchun kutayabman tunni.

INOYATOVA ADIBA AXROR QIZI

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 2-kurs

UMID

Hayot shunday yoki men shunday,
Unutganda yo'qlagim kelar.
Beshigimda qoldi gul umrim,
Quvonganda yig'lagim kelar.

Vaqt - sahroda tentigan hayot,
Yo'qotganda izlagim kelar.
Meni gung deb o'ylama, hayot,
Sukunatda so'ylagim kelar.

Umidimni qaysar ruhimga
Kitob o'qib uqtirgim kelar.
Titrayotgan borliqqa boqib
Dardlarimni yuqtirgim kelar.

Siyрати but, lafzi borlarga
Ta'zim qilib, bukilgim kelar.
Mehr degan lolazorlarga
Yomg'ir bo'lib to'kilgim kelar.

"OPPOQ ATIRGULGA AYLANIB QOLSAM..."

Oppoq atirgulga aylanib qolsam,
Zavqli nigoh ila boqarding balki,
Qalbdagi g'uborni yo'qotmoq uchun,
Bag'ringga entikib bosarding balki.

Oppoq atirgulga aylanib qolsam,
Gulzordan olisga ketmasmi eding.
Dildagi tikonim sanchilisa bexos,
"Senimas, o'zga.." deb aytmasmi eding.

Oppoq atirgulga aylanib qolsam,
Sochimdagi oqdan sevinarmidim.
Yonimda turfa xil gullar ichida,
Qizil gul yonida kezinarmidim.

Oppoq atirgulga aylanib qolsam,
G'uncha qo'llaringda so'kilar edi.
Oppoq atirgulga aylanib qolsam,
Yaprog'im poyingda to'kilar edi.

ISMOILOVA SUG'DIYONA ASHUROVNA

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 3-kurs

YOSHILAR MA'NAVİYATINI YUKSALTIRISHNING MUHIM OMILLARI

Hugungi kunda yoshlar to'g'risida ko'pgina qarorlar qabul qilindi. Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va axborot texnologiyalaridan foydalanishini oshirish bo'yicha ko'pgina chora-tadbirlar ko'rildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov: - "Ma'naviy jihatdan muammol rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'unish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi" - deya ta'kidlab, "Bizga shunchaki bitiruvchilar emas, maktab ta'limini va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak", deb aytgan edi.

Shaxsiy fikrlarimga ko'ra, universitet va institutlar ta'lim tizimini yanada yaxshilash va o'zgartirishlar kiritilishi kerak. Masalan: universitet va institutlarda ko'pincha nomtaxassis fanlar ham ko'p o'tiladi. Mutaxassis fanlar esa bor yo'g'i haftada ikki juftlik bo'ladi. Nomtaxassis fanlarni keskin kamaytirish chora - tadbirlari ko'rilishi kerakdir. Agarda haftada besh yoki olti juftligida o'zining mutaxassis fanlari o'tilsa, ta'lim sifati anchagina yaxshilangan bo'lar edi. Bu dastur birinchi kurslar uchun ham qo'lansa, kelajakda yetuk mutaxassis bo'lishi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilardi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 13-yanvardagi qaroriga ko'ra: yoshlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatini oshirish bo'yicha ko'pgina qatorlarga muvofiq, elektron kutubxonalar va 14 ta viloyat axborot-kutubxona markazlari o'z ish faoliyatini boshladi. Ammo ba'zi muammolar bundan mustasnodir. Masalan: hozirgi pandemiya sharoitida Internet sifati pastligi va viloyatlarda kutubxonalar yetarlicha kichiklar bilan ta'minlanmaganligi o'qish sifati anchayin pasayirdi. Muammasi yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kutubxonlik madaniyatini shakllanib bir qator muammolar mavjudligini qayd etish lozim.

Prezident Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 14-avgustdagi qaroriga va 2017-2021-yillarda O'zbekiston respublikasining rivojlantrishning

beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq: "yoshlarni ma'naviy-axloqiy barkamol etib tarbiyalash ularga ta'lim tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni dasturi tasdiqlashin", - deb yozilgan edilar.

Shu qarorlarga muvofiq Toshkent shahri va viloyatida ko'pgina xususiy maktablar ochildi. Bu maktablar yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish bilan birga, axborot texnologiyalardan ham foydalanishning samaradorligini oshirdi. Ammo haligacha viloyatlarda ta'lim sifati juda pastdir. Bunga sabab texnikalarning yetishmasligi, darsliklarning mukammal emasligi va ayrim o'qituvchilarning yetarli bilimga ega emasligidir. Chekka viloyatlarda ham xususiy maktablarni ko'paytirish va axborot resurslar markazlarini ochish, o'quvchilarni yanada bilim olishga mas'uliyatliroq qilar edi. Shuningdek maktablarda va oliy o'quv yurtlarida o'quvchilar fan o'qituvchilarini o'zi tanlashga imkon berilishi kerak. Tanlov asosida o'qish albatta samaraliroq bo'ladi. O'qituvchilarning o'z fanining eng zo'r mutaxassisi bo'lishiga intilishlari yanada kuchayar edi. Chunki raqobat bor joyda o'sish bo'ladi. Bu bilan nafaqat o'quvchilarning, balki o'qituvchilarning ham bilim darajasi yuksalgan bo'lar edi. Shuningdek, oliy o'quv yurtlarida ma'ruza darslari, chet el professorlari tomonidan so'zlangan ma'ruza videolari talabalarga qo'yib berilsa, ham jahon yangiliklaridan bahramand bo'ladi, ham o'sha fanga bo'lgan qiziqishlari ortgan bo'lardi.

Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zamon talabidir. O'qitishning zamonaviy usullari va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llamasdan turib o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida samarali natijalarga erisha olmaydi. Ammo bunda ta'limning maqsad va mazmuni usul va vositalari handa tashkiliy shakllarini to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirishda O'zbekiston "Yoshlar ittifoqi" ining ham o'rni beqiyosdir. Yoshlar ittifoqining asosiy maqsadi: zamonaviy, ma'rifatlil, ma'naviy va intellektual rivojlangan, baquvvat aql-idrokni namoyish etish, uning xatti-harakatlari bilan misol bo'la oladigan, tashqi xavf-xatarlarga qarshi turishga qodir yosh yigit-qizlar bo'lishi har birimizning burchimizdir. Ma'naviy barkamol inson o'ziga loyiq ko'rmagan biron bir nojo'ya ishini o'zгалariga ravo ko'rmaydi, hech bir kishiga jabr-zulmini xohlamaydi, jonzo'ga ozor

bermaydi. Vatanga va millatga sodiqlik ham madaniyatilik, ma'naviy barkamollik, ahloqiylikning belgilaridan hisoblanadi.

Agar ko'pchilik G'arb mamlakatlarining ta'lim tizimiga razm solsak, ularda bolani muayyan bilimga, fan sohasiga oshno qilish, shu soha bo'yicha tobora chuqurlashish masalasiga ko'proq e'tibor qaratilishiga guvoh bo'lamiz. Darsini o'tib tugatgan o'qituvchi ham bolaning odob-axloqi, dunyog'arashi, ma'naviy ruhiy ehtiyojlari bilan deyarli qiziqmaydi, bu narsalarga o'zini mas'ul deb his qilmaydi. Balkim, shuning uchun ham G'arbda, axloqsizlik va ota-onaga mehrsizlik muammolari ko'p uchrar.

"Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi - bu shargona qarash, shargona hayot falsafasi", birinchi prezidentimiz shunday degan edilar. Ammo shuni unutmash kerakki, G'arb ham ilmiy, ham texnika jihatidan anchayin rivojlangan. Bizning muamlatimizda ham bilimga ko'proq e'tibor qaratilsa, G'arbdan o'tib ketishimizga ishonaman. Oliy o'quv yurtlarida va maktablarda ta'lim tarbiya bilan shug'ullanuvchi faqat psixolog o'qituvchilar bo'lsa, qolgan o'qituvchilar faqat bilim berish bilan shug'ullansa, bilim darajasi anchayin yuqorilagan bo'lar edi.

Im-fan va ta'lim-tarbiya sohasining moddiy texnik bazasi yanada mustahkamlash, uning nafaqat davr bilan hamohang bo'lishini, balki zamonadan oldinda yurishini ta'minlash, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash ilg'or usullaridan keng foydalanish, bu ishlarni soriqladgi nufuzli markazlar bilan hamkorlikda olib borish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchi va ustozlarni ma'rifatlil va mas'uliyatli mehnatini har taraflama rag'batlantirish bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish, davlatimiz tomonidan harcha imkoniyatlar safarbar etiladi. Darhaqiqat, prezidentimizning shunday qarorlariga muvofiq darslarni sifatini yanada oshirish va moddiy texnik bazasi bilan ta'minlash lozim. Yuqoridagi fikirlarga tayyarl maktab va universitetlarda ayrim o'zgarishlar kiritilsa, kelajak uchun katta qadam bo'lar edi. Yoshlarning ham ma'naviy barkamolligi oshib, kelajak sari ildam qadam tashlaydilar. Unutmang, bu o'zgarishlar osonlikcha bo'lmaydi va quruq gap bilan ham hal bo'lmaydi, Vatanimizni yanada rivojlantirish uchun siz-u biz har hamiz birdek harakat qilishimiz kerakdir.

KUSHBAYEVA FARIDA ABDUBANNOB QIZI

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 2-kurs

MUHABBAT

Sog'inib, axtarib topmadim seni,
Shunchalar uzoqda ekansan bildim.
Ko'nglim istaydi-ki ajib bir hisni,
Kelishingni istab nolalar qildim.

Bu his yashar balki yurak tubida,
Atirgul misoli ochilar bir kun,
O'ylayman qachondir kelishing bilib,
Sen bilan xayollar, mo'jizadir tun.

Mayli sabrim yetgunicha kutayin seni,
Ko'zlarim vaslingga intizor izlar,
Javobsiz muhabbat, muhabbat emas,
Bu so'zni yodimga soladi qizlar.

Unda ham yurak bor sog'inar kimni,
Memmi yo boshqasi bilmay yuraman,
Shunday bo'lsa baribir o'zing axtarib,
Ko'zlarim to'rt bo'lib seni kutaman.

SOG'INIB

Sog'inib yashayman, sizni sog'inib,
Ko'nglimda sevgi-la umid mushtarak,
Sog'inib kutaman har tong, har sahar,
Sog'inichdan qiyalib ketsa ham yurak.

Eslasam, o'sha biz yurgan yo'llarni,
Qadrdon majnuntol yodimga tushar,

Soylarda suv sepi yurgan chog'imiz,
Siz tomon chorlaydi hatto ki tushlar.

Tushimda ko'ribman, ikkimiz bog'da,
Bulbulga jo'r bo'lib qo'shiq aytardik,
Lola, binafshalar ko'p emish biram,
Bir dasta, bir quchoq terib gaytardik.

O'shal dam keladi bilaman buni,
Yana birga bizlar baxti bolamiz,
Hammaning havasi kelar bizlarga,
Muhabbat osmonida oydek to'lamiz.

OQIBAT

Yashash g'animatdir, besh kunlik hayot,
Ortimizdan qolar yaxshi yomon nom,
Kimdan bog' qoladi, kimdan esa dog',
Har kimki muruvvat izlaydi mudom.

Yurgan yo'limizdan izlasak boylik,
Toj-u taxt kimlarning oliy orzusi.
Kimgadir baxt berar kichik g'o'zallik,
Tundagi yulduzning yorug' shu'lasi.

Oqibat bor joyda yovuzlik bo'lmas,
Toshni eritadi bir chimdim mehr.
Bir-birin ko'rmoqqa ko'zi yo'qlar bor,
Bilman nedan bunyod shunchalik qahr.

Barchamizdan qolar ikki qarich yer,
Hammaniz borumiz gora tuproqqa.
Yomon ishlar qilib qo'yamiz bilmay,
Boshqa yo'l topilmas ortga yurmogqa.

BAXTIM O'ZINGIZ

Ko'zlarim porlaydi yulduzdek yonib,
Qalbmida tuyg'ular chashmasi oqar,
Kunlarim baxt ila o'tar sen bilan,
Qarashing muhabbat olovini yoqar.

Visol bog'larini kezib birga biz,
Ikkimizga bulbullar hamrohlik qilar.
Shamolning shiviri ajib bir navo,
Sevgimiz iforin dunyolar bilar.

Baxt saroyini eshigin ochib birma-bir,
Har bir xonasida o'zgacha tuyg'u.
Ikkimiz doimo bo'lsak gar birga,
Yaqin kelmas bizlarga hech qachon qayg'u.

Tunimni yoritgan oy-u yulduzim,
Kunduzi nur sochar yorug' quyoshim.
Bir umr yonimda hamroh dilkashim,
Baxtimiz qalqoni aziz yo'ldoshim.

KADIROV ASROR XO'JAMGULI O'G'LI

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi, 1-kurs

KO'NARKAN INSON

(BESH KUNLIK DUNYO)

Tug'ilgandan taajjubda, dardli jahonda
Tarbiyat-la, yosh niholdek unarkan inson
Anglab borar, goh zulmat, goh nurlil jahonda
Alloh yozgan taqdiriga ko'narkan inson

Boyar bisot tafakkurni, o'spirin chog'in
Xayolotda, oyni ushlab ko'rarkan inson
Adashganda, yashirolmay ko'z qirindog'in
Alloh yozgan taqdiriga ko'narkan inson

Yoshlik davr - o'tish davri, har kim har yo'lda
Necha savob, necha gunoh o'rarkan inson
Yig'gan hosil-xirmon ila qolsa gar cho'lda
Alloh yozgan taqdiriga ko'narkan inson

Yoshlik qolib ortda, kelsa keksa yoshiga
Kuch-quvvatdan asta-sekin so'narkan inson
Sinovli yomg'irdan tushsa tomchi boshiga
Alloh yozgan taqdiriga ko'narkan inson

Keksalik chog' - so'ngi bekat, bir qadam mahshar
Gunohkor, dod, Haqdan ma'zur so'rarkan inson
Tavba, afv-u, tazarruga ulgurmay aksar
Alloh yozgan taqdiriga ko'narkan inson

RASULULLOHNI

Duolar qilaman, ko'zga olib yosh,
Oydinli tunda-yu, chiqqanda quyosh.
Har kuni, hamma vaqt yo'qlab Allohni,
Tushimda ko'rsaydim Rasulullohni.

Men juda xohlardim kunda, kun ora,
Mayli, umr bo'yi faqat bir bora.
Unda farishtalar qilar guvohni,
Tushimda ko'rsaydim Rasulullohni.

Musulmon bo'lib men angladim neni,
Tahajjudda qolib tanladim neni.
Farqlay olganimda savob-gunohni,
Tushimda ko'rsaydim Rasulullohni.

Islom ummatiga bo'lgandir nima,
Namozsiz o'tar kun, farq qilmas juma.
Chin muslim anglar bu fig'on-u ohni,
Tushimda ko'rsaydim Rasulullohni.

Shayton hiylasidan asra musulmini,
Ilohiy tavbaga boshla musulmini.
Qur'on-u hadisdan topsin panohni,
Tushimda ko'rsaydim Rasulullohni.

Allohnini hamma vaqt yod etsa kimki,
Savob-la dillarni shod etsa kimki.
Iqror, tavadan faryod etsa kimki,
Tushida ko'rsin u Rasulullohni.

O'ZGA YORI

Mengamas, boshqaga uzatgan qo'lin,
Unga qaratilgan, bor e'tibori.
Kun-u tun, bedor va intizor yo'lin,
Poylashga haqqim yo'q, u o'zga yori.

Hijron ham bearmon qiymana meni,
Boshim gangitsa-da, bu ishq xumori.
Shunday holimda ham, mutlaqo uni,
O'ylashga haqqim yo'q, u o'zga yori.

Balki qutulolmam, armon, alamdand,
Balki qazilgaydir, sevgim mozori.
Ishqim ishq bilmagan, o'sha sanamdand,
Kuylashga haqqim yo'q, u o'zga yori.

Bu dardchil dilimning, ash'ordir do'sti,
Bir zum yozay desam, jim ishq g'ubori.
Qalam tilga kirib: "men qog'oz usti,
"O'ynashga" haqqim yo'q, u o'zga yori".

Neni o'ylasada, men haqda o'yin,
Shundan iboratdir, kamina bori.
Hatto hayollarda, bo'yimga bo'yin,
Bo'ylashga haqqim yo'q, u o'zga yori.

Vaqt o'tib yengilsa, soch ham qirovga,
Hamon qiymana-da, bergan ozori.
Shunda ham, u haqda boshqa bировga,
So'ylashga haqqim yo'q, u o'zga yori.

OSHIQIMIZDA BIZ

Labin bezamasin - qimmat lab bo'yoy,
Mayli, ro'mol to'sib, ko'rinnasin yuz...
Tutgan ro'zalardan qurisin dudoy -
Shunday muslimaga oshiqimizda bizi!

Butunlay yot bo'lsin be'mani tarmoq,
Bekorchi so'zlarni aytmasin bejiz!
Qoplama laklardan sof tursin tirnoq
Shunday muslimaga oshiqimizda bizi!

Hirs-u nafslardan o'zin asrasin,
Mol-u davlatlarga yugurmasin ko'zi!
Go'l-u belafzlardan so'zin asrasin,
Shunday muslimaga oshiqimizda bizi!

Ota-onam bo'lsin, mendanda yaqin
Ular bergan mehin, anglasin so'zsiz...
Kelin, kichik beka, sarishta, oqin -
Shunday muslimaga oshiqimizda bizi!

Dilda iymon bo'lsa, so'z isbot emas,
Joynamoz ustida besh vaqt cho'ksin tiz...
Sadogati cheksiz, o'zgani demas
Shunday muslimaga oshiqimizda bizi!

Solih yor bo'lsin, solih ona -
Iymondan dars olsin, farzand: o'g'il-qiz
Musulmon ayoli, emas xalqona,
Shunday muslimaga oshiqimizda bizi!

Uzi, chin oshiq, so'zlaring bota,
Balki, o'zgachadir - sizning didingiz!?
Bomdod namoziga tongda uyg'otsa
Shunday muslimaga oshiqimizda bizi!

KAROMATOV AKBAR ABRAMAT O'G'LI

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 1-kurs

LOLA

Lola – shoiriarning dardkash jigari,
Eshitgin, o'jizman hazon singari.
Shu kunlar men uchun jahannam qari,
Shu sabab izlay keldim seni tog' sari.

Lolajon tiz cho'ksam, bo'zlab yig'lasam,
Bo'lmasdi avvalroq, o'zim, anglasam.
Roziydim, umrimda uni ko'rmasam,
Yo ko'zim o'yardim ichaman qasam.

Lola yelkangni tut, o'kirib yig'lay,
Shu jismni quechmasang holi qolmadi.
Yo bir so'z ayting, telba bo'lib qolay,
Bu telba sevganin o'zi olmadi.

Lolajon, eslasam eriydi tanam,
Dod! dod dunyo! dunyosiga ham.
Lolajon bo'zladim, yana ne qilay!
Bir imkon ayt, men ham lahزالik tinay.

(Sariosyo vogalari qahramonlariga bag'ishlanadi, 2002-yil)

ASKAR

Ildiz otib ulgurmagan, miti giyohlar,
Bugun tortmish yuzlariga alvon siyohlar.
Tinnay yig'lar yuzlari qon, qo'rqib shu onlar,
Axir quvnoq edi pokim, saharlab tonglar.

Shunda goya yiqiladi giyoh poyiga,
Shivirlab der yuzing artgin mana shoyiga.
Qoyaning-chi ust-boshi qon oqib joyiga,
Ammo chidar kulib qo'yib yarim oyiga.

Bilagini yastiq qilgan – go'zal yoridir,
Bag'risida allalagan – miti yoqutdur.
Endi nesin o'ylaydi u, o'tdi vaqt surur,
Yana bir bor ko'rsam deydi, qo'ymaydi g'urur.

Axir o'zbek o'g'loni-da yurtim yorim der,
Qo'rqmagin sen himoyang-chun oqsin qon ham ter.
Bir iltimos shu shoyini, yorim kelsa ber,
Degin mendan salom, yorim va qoldi shu she'r.

O'zbekimning ko'zlarida qonli yosh qoldi,
Singillarim nomus deya Sibirida yoldi.
Shoir bobom navolari unga ho'p botdi,
Bir urvoq nonni tamshab ming yil qaroldi.

Kechirmam hech endi emas sort, tuzem, nodon,
Yeding shunchasini yetar, soxta amir, xon.
O'n yil deding mahkumingga, Mirkarim bobom,
Endi senga beramdim hammasi tamom.

Endi ulug' boshing ko'tar, so'yla navqiron,
So'ra beray jon bilan et, tutay honumon.
Yashab qolsin faqatgina, shu giyoh omon.

YOMG'IR

Yomg'ir eslaysanmi ikkiniz tanho
Yig'lagandik oppoq o'rik yonida.
Hatto, tun aytgandi, yosh, boshing qaro,
Hali shumi holing, umr ayvonida

Men nodon o'ylabman mehri- oqibat,
Haqgo'ylik ma'nosi inson so'zining.
Doimo, to'rida, vafo-sadoqat,
Foydasin ko'zlamas inson o'zining.

Ne qilay bahor ham kuz ko'rmaguncha,
Yer halqasin tutib yelkalay deydi.
Insonlik har kimda, o'yladim necha,
Maylida nafsiga, berilib qo'ydi.

Shunda tun aytgandi, ortga o'g'rib,
Darding qancha yig'la, mayli jar solgin.
Mayli, kuyganing ayt, og'iz to'ldirib,
Lek, dunyo ayblama, jim qo'ya qolgin.

Sendan avvalgil, o'tdi chingirib.
Misol: savdogar u ortida rasta.
Lek xaridor bo'lmas, ko'hna chig'irig.
Buki dunyo emas, dilgina xasta.

Shundan nohimayman, un ham chiqarmam.
Boqsamki, yonimda, ular bir talay.
Mehri bermogqa men, sahro, qaqrogman
Ular sof oltin-u mengina qalay.

Ular yig'lasharkan, ammo bildirmay.
Ko'zlari doim nam, yuzda tabassum.
Ular yurisharkan savob qidirmay.
Ki qalbga tegma sen, Allohdir mamnun.

HISLAR QOTILI

O'ylar, xatolar, g'amlar amrida,
Men jallod, nokasman, ismsiz mahluq.
Ammo buyuk hislar g'arib qabrida,
Tunlar yig'layman yupatar Yaqub.

Qabrida poklik, vafu, sadoqat,
Kechirganmiz sizni, ezilmang deydi.
Buni siz aytman, aytman siz faqat,
Boshingiz to'nkaga, axir kim qo'ydi?

Boshingiz to'nkada deding, ey o'g'lon!
Men senga mahram neki qilsang ham,
Ammo, qilich urdim boshingga shu on,
Bir so'z aytiding, seni suyaman hamon!

Nomsiz yaratilgan so'qir bir kimsa,
Orzu! Deya nafsning uyida yotdim.
Men seni abading, orzuving desa,
Keraksiz buyumdek seni men otdim.

Ey ulug' yaratig bo'lgan fazilat,
Sizlarni birma-bir balchiqqa qordim.
Mendan istadingiz zarra hamiyat,
Men nokas esa, dorga obordim.

O'z qo'lim bilan birma-bir osib,
O'z aybimga sizni hadya qildim.
Bir tomchi ko'z yoshga tutaqib-to'zib,
Sizlarni sababchi aybdor bildim.

Aslida, angladim siz-ku yupanchim,
Sizsiz chang, g'ubor bo'lib qoldim-ku.
Birov puf desa sassiz, uchgun jim,
Iltimos! Jonni ol charchab toldim-ku.

O'tinchim ko'kka qadam qo'yolmay,
Makonim bo'lsin, vayl darasi.
Bir umr mayli o'tga to'yolmay,
Menga jannat erur, do'zax sarasi.

So'zlagim kelar yolvorib yig'lab,
Oldingda tik turib olgan bo'lsam-da.
Oldingga kelganman anchasin qiywab,
Ammo davom etgin lafzdan tonsam-da.

MUXAMMADIYEVA MOHICHEHRA SHAVKAT QIZI

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 1-kurs

JO'SHQINLIK

Orzularga burkangan qalbim-
Yuragimda mo'jaz bir bahori
Kelgin,qog'oz,tutinaylik do'sti
Senga aytar ko'p gaplarim bor!

Shodliklarim poyoni yo'qdir
Vujudimda jo'shar shijoati
His-tuyg'ular ilhomi cheksiz-
Aqlga hech qilmas itoat.

Ko'zlarimda barq urar quyosh
Qayg'ularga begona bu dill!
Yomonlikni o'ylamaymiz hech
Fikrlar ham turfa,xilma-xil...

Ertangi kun g'unchalari-biz,
Faxr ortib borar kun sari!
Kelgin,do'stim, kuylaylik birga-
Ezgulikdir- alyorlar bari...

Yurt tayanchi-barkamol avlod,
Shudir bugun yoshlar shiori!
Yurakda ham bordir bir ishonch-
O'zbekiston-baxtning diyori...

YURTBOSHM...

(L.A.Karimov xotirasiga bag'ishlanadi)

Istiqlol bayrog'i uchdi ko'klarda,
Mustaqillik kuyi yangradi ilk bor...
Siz yo'lboshchi bo'lgan shu ulug' millat-
Dushmanlarga bo'yin egmadi zinhori!

O'zbekiston,deya tan oldi jahon...
Yuksakka intilidik yigirma besh yili
Siz boshlagan yo'ldan borardik mag'rur,
Hatto oramizga sig'imas edi qili!

Buyuk imoratlar qad rostlab yurtda,
Kelajak madhini ifoda etdiki!
Kimlar armon bilgan mustaqillikka,
Kimlardir yetmagan kunga biz yetdiki!

Ulug' temur ruhi qo'llardi bizni,
Vatanning ravnagi o'sdi toboral!
Mag'rib-u mashriqqa yoyildi nomi
Dunyoda chempion bo'ldik ko'p borai!

Falakning gardishi aylanarkan-tez,
Sizni yo'qotmoqlik bor ekan boshda...
Osoyishta hayot yo'llarin ochib-
Siz abadga ketdingiz muborak yoshda.

Zaminini qopladi zim-ziyo bulut,
Bizlarga qo'shilib yig'ladi osmon...
Boboming,momoming ko'zlarida yosh...
O'sha kun ko'zimning oldida hamon...

Ko'nglingiz to'q bo'lsin,shavkat bobom bor-
Yo'lingizni davom ettirdi ular,
Sizday mehribondir,sizday mehmondo'st...
Sizga o'xshab baxtni keltirdi ular...

“Xalqiga,yurtiga mehridaryo zot”-
Yodimizada doim yorqin izingiz,
Fidoyilingingiz eslab umrbod-
Siz uchun she’r yozdi bugun qizingiz...

HUR DEHQONOBOD...

Xush bo‘y havosidan jon orom olar,
Har yeri,har joyi go‘zaldir, obod.
Kelganlar,shubhasiz, hayratda qolar...
Eng go‘zal makondir Dehqonobod...

Bir tomon sahrodir, bir yoq chamanzor,
Qashqadaryodachi, so‘lim bir diyor!
Odamlari tanti, doim baxtiyor
Eng go‘zal makondir Dehqonobod...

Hamma mehnat qilib,sira tinmaydi,
Ig‘vo,qayg‘u,araz-nima, bilmaydi....
Qalbga yod ishlarni aslo qilmaydi
Eng go‘zal makondir Dehqonobod...

Ariqlar to‘libon,zilol suv oqar,
Jaydari so‘zlari quloqqa yoqar,
Kelganlar doimo havas-la boqar,
Eng go‘zal makondir Dehqonobod...

Turfa giyohlari har dardga da‘vo,
Qushlarning xonishi-misoli navo....
Shu yurtni aylanib,kezadi sabo,
Eng go‘zal makondir Dehqonobod...

Yoshlari aqlli,zukko,bilimdon,
Har jabhada topa biladi imkon,
Bolalar yutug‘i-unga shavkat,shon,
Eng go‘zal makondir Dehqonobod...

Bu elda muqaddas-keksalar so‘zi,
Hech qachon sinmagan adolat ko‘zi,
Hardoim bizga yor-Allohning o‘zi,
Eng go‘zal makondir Dehqonobod...

Qizlar Barchinoy,husnda dildor,
O‘g‘lon tomirida temur qoni bor,
Ag‘yolarga bo‘yin egmagay,zinhor,
Eng go‘zal makondir Dehqonobod...

Chekka tuman,ammo yurtning naqshida,
Alyor, ash‘olarim unga baxshida,
Elni faxr ila kuylash-yaxshida,
Eng go‘zal makondir Dehqonobod...
Eng go‘zal makondir Dehqonobod...

MUXIDDINOVA DILZODA ELMUROD QIZI

Kimyo yo'nalishi, 1-kurs

FAXR

Tongni qarshilaydi quyosh jilmayib,
Xayrlashish onin oymomo kutar.
Yulduzlar quyoshdan bir-bir berkinib,
Samo ularni qariga yutar.

Tun ham o'z o'rmini kunga bo'shatib,
Olam sahnasida kun boshlanadi.
Dillarda tilaklar, ajib bir surur,
Hayit lazzatidan ko'z yoshlanadi.

Tong duri maysada jilmayar,
Iforin taratar gullar chamanaga.
Dunyo mehr bersa arziydi do'stim,
Shu obod, shu ozod, go'zal Vatanga.

O'ZBEKISTON

Inson qadr ko'rgan buyuk davlat bu,
Ajdodlarin suygan suyuq davlat bu.
Mehmondo'st, mehribon yirik qudrat bu
Bag'rida asragan onansan Vatan,
Mehrin ayamagay otansan Vatan.

Qadindan asrlarni ko'rgan tuproq bu,
Bobolarim hokin ko'ngan tuproq bu,
Vaqti kelsa dunyo tuygan firoq bu,
Bag'rida asragan onansan Vatan
Mehrin ayamagan Otansan Vatan.

Olamda yagona aziz beshik bu
Dilbandin avaylagan laziz beshik bu,
Kirsas chiqolmagan jannat eshik bu
Bag'rida asragan onansan Vatan
Mehrin ayamagan otansan Vatan.

Bir-birini qadrlagan o'chmas iymon bu,
Yurtboshin e'zozlagan o'lmas iymon bu,
Hamjihat, birlashgan asli inson bu
Bag'rida asragan onansan Vatan
Mehrin ayamagan otansan Vatan.

Jahon tan bergan Navoiy bobom bu
Har kun bizga najot nazmiy bobom bu,
Tangrim hadya qilgan cheksiz in'om bu
Bag'rida asragan onansan Vatan
Mehrin ayamagan otansan Vatan.

Bayrog'i ko'kka boqqan O'ZBEKISTON bu
Temuriylar chiqqan O'ZBEKISTON bu
Dunyo zarvaraqda yozgan doston bu
Bag'rida asragan onansan Vatan
Mehrin ayamagan otansan Vatan.

CHINOR

Qaddi bukilmaydi qaddi osmon bu
Barglari shovullar qo'shiqqa jo'rdek
O'z aksin ko'radi anhor bo'yida
Bu chinor eng baland, g'animga to'rdek.

Shoxlari bulutni qitiqlaydi so'ng,
Yomg'ir ham yog'adi bulut ko'z yoshi.
Bu a'zim chinorning niyati ulug',
Shunday portlab turar umr quyoshi.

Ba'zan shu chinorga qilaman havas
Ne-ne bo'ronlarga qalqondir ko'ksi
U bog'u, gulzorlarga panoh bo'lay deb,
Ona yer bag'ridan ko'kka tomon o'sdi.

MANGU XOTIRA

Aziz va muqaddas zaminda bu kun,
Xotira e'zozda mangu yashaydi.
Abadiylik qarida sira yo'q tugun,
Xotirada haqiqat gullab yashnaydi.

O'chmagay qarisada odamzod bir kun,
Chunki bu xotira faqat dillarda.
Tinchlik yashar ekan chiqmagay xoin,
Xalqim noming doston bugun ellarda.

Adolat o'z hukmini baralla aytib,
Urushga barham berdi haqiqat.
Zalolat kelmaydi endi hech qaytib,
Yurtim o'g'lonlaring sen uchun madad.

Mangu xotiradan azizroq ne bor,
Xotirasiz kelajak bo'lmaydi aslo.
Ajdodlar ruhi ila yashmagay bahor,
Ko'ksimda iftixor mangu Xotira.

NE'MATOV MIRSHOD MIRSHOD O'G'LI

Tarix o'qitish metodikasi yo'nalishi, 1-kurs

SEN KETDING...

Sen ketding, bu dunyo go'yo ma'nosiz,
O'zing bilan birga olib ketdingmi?
Sen ketgan yo'llarda turibman yolg'iz,
Oxiri o'zingga shaydo etdingmi?

Sen ketding, men qoldim otash dard ila,
Bag'rinni kuydirar sening hijroning.
Umrinda gullagan bahordek misli,
Bir lahzalik menga tabassum oning.

O'shal kulgularing endi ko'rar kim?
Qalbim qiyagaydir shu kabi so'roq.
Faqat men uchundur borliging seni,
Ey nigor, ko'nglimdan ketmagin yiroq.

Mendan olislashib nima topgay-san,
Yohud hayotingda ne bo'lur paydo.
Bu ko'hna ochunni kezib chiqsang ham,
Topilmas o'zingga mendayin shaydo.

Kutaman ehtimol bir kun qaytarsan,
Sen bilan fusunkor rangsiz hayotim,
Ishqingda yongayman ash'orlar bitib,
Sen uchun ataldi she'riy bayotim.

YOMG'IR

Tomchilaydi yomg'ir qaro bulutdan,
O'xshaydi go'yoki ko'zim yoshiga.
Sog'inchlarim bu dam misoli tomchi,
Yog'ayotir bu kun ul yor boshiga.

Qanday rutubati kundek tasavvur,
Chaqmoq derazamga soldi olov iz.
Shalabbo bo'lsamda ko'changga qarab,
Yo'l soldim, ko'rayin seni go'zal qiz.

Taassuf, ko'rdimki qop-qora asfalt,
O'chib ketgan sen-la yurgan izlarim.
Lekin yuragingni tark etmadimi?
Sevaman deganim, sevgi so'zlarim.

Keldim derazangga qarayman mushtoq,
Ko'rayin deymanu mas'um yuzingni,
Esladim keyinroq, yuragim yonib,
O'zgani sevaman degan so'zingni.

Muhabbat azobi tushdi yelkamga,
Uning jarohati hamisha og'ir.
Lekin biron kuni qora ko'zingdan,
Oqib kelar hali tomchilab yomg'ir.

ANTIQA REJA (Hazil she'r)

Yigit kursdosh qizga,
Sevgi izhor qilgandi.
Lek ul pari yo'q debon,
Oshiq bag'rin tilgandi.

Yigit yondi bag'ri kabob,
Chidolmasdi alandan.
O'ch olmoqqa chog'landi,
Ul qoshlari qalamdan.

Bir fikrdur xayolida,
Bir antiqa yo'li bor.
Buni ko'rsa o'sha qiz,
Dunyo ko'zga bo'lar tor.

Yigit hech kinga aylamay,
Oldi gulni "dodasin"
Qarasa ko'z qamashar,
Go'yo marjon shodasi.

Salom-alik qilishgan,
Ham yurt qizga beradi.
Bir alami kelsinchi,
So'ngra holin ko'radi.

O'sha kun bayram edi,
Tabrik ayol, onaga.
To'satdan gul ko'tarib,
Kirib keldi xonaga.

Hamma hayron, hamma lol,
Kimga atalgan bu gul,
Ham yurt qizga beribog',
Tashqariga soldi yo'l.

Xona to'ldi qarsakka,
Oliqshlar xo'p yog'ildi.
Ul qizga alam qildi
Chidolmadi bo'g'ildi.

Endi o'ylar qizgina,
Xo'p desam ne bo'lardi,
Yomon yigit emas-ku,
Gul ham menga o'tardi.

Xullas, o'sha ul pari,
Xatosini angladi.
Sevdim degan yigitning,
Muhabbatin tanladi.

Yozganim cho'pchak emas,
Haqiqatdan olindi.
Shunchaki ishlov berib,
She'riyatga solindi.

Yigitlar shunday oling,
Rad sevgini o'chini.
Bu rejalar siz uchun,
So'ng ko'rgaysiz kuchini.

NURIDDINOV ZAFAR

BAHOR

Kelding sabolarni yetaklab bahor,
Quvonch tuyg'ularni sen qilib hamroh,
Uyg'otib daraxtlar kurtagin nahor,
Xush kelding bahorim, yetaklab takror.

Tog'lar jilg'asida ohanglar jo'shgan,
Soylar lablarida maysa chertar tor,
Zardoli, bodomlar qiyg'os gullagan,
Xush kelding bahorim yetaklab takror.

Bog'bon bog'larining butoqlarida,
Dehqon qo'llarida urug' intizor,
Daryolar ko'pirar qirg'oqlarida,
Xush kelding bahorim yetaklab takror.

Onalar allasi mayin xush ovoz,
Qirlar ko'ksi to'la anvoyi gulzor,
Qushlar o'ynab, sayrab aylaydi parvoz,
Xush kelding bahorim yetaklab takror.

Tog'lar, qir, adirlar maysa, gul baxmal,
Daraxt munchoqlari tasbeh aytar yod,
Qaldirg'och chug'iri mayin har mahal
Xush kelding bahorim, o'lkamiz obod.

PARDABOYEVA RA'NO FARHOD QIZI

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 1-kurs

BAXTNI KUTAMAN

Tonggi shabbodalar yuzga urilib,
Yo'limda hayol-la ketaveraman.
Oyoqlarim ham qoqilib, siyilib,
Men baribir baxtni kutaveraman!

Xayol osmonida parvozlar qilib,
Jilmayib gohida yig'lagim kelib,
Kimning nazarida baxtiyor bo'lib,
Men baribir baxtni kutaveraman!

Qancha surilsam ham oyog ostida
Yuribman baribir yerning ustida.
Men takror aytaman hayot pastida
Men baribir baxtni kutaveraman!

Bulutlar yomg'ir-la baxtga yetgandek,
Har tomchi yomg'irdan lazzat olaman.
Vaqtincha baxt mendan biroz ketgandek,
Men baribir baxtni kuta qolaman!

Ustimdan kuldilar goldim g'affalda
Men barcha dardimni ichga yutaman.
Baxtli kunlar bir kun kelar albatla
Shuning uchun faqat baxtni kutaman!

Mayli, yaqinlarim begona bo'lsa,
Ortimdan turli xil ig'volar qilsa,
Mardlar "Alloh" deydi, qo'lidan kelsa,
"Alloh" deb baxt uchun yashayveraman!

Do'st deb bilganlarim "o'ynadi" ancha,
Yuragimni yulib qiyinadi qancha,
"Ishonchim" qabrini yig'ladim qucha,
Kafanlab qo'ymasdan baxtga ketaman!

To'g'ri, hayot ekan sinar insonni,
Gohi olib qo'ydi mendan imkonni,
To'g'ri yo'lga solib qiyinagan jonni,
Men baribir baxtni kutaveraman!

Allohim umr bersang qancha bo'lsa ham,
Mayli bu dunyoda chekib o'tay g'am,
Sening vasling deya ko'zlarimda nam,
Jannatingga loyiq bo'layin men ham.

"Baxt" deb o'sha onni ayta olaman,
Eng go'zal baxtga men yetga olaman.
Mening bardoshimni qulatomaysiz,
Chunki men bir kuni baxtga yetaman!!!

QISHLOG'IMGA QAYTGIM KELIYAPTI, ONA!

Shahar o'zga hayot, tushunib bo'lmas,
Boringcha hech kimsa qabul qilolmas,
Yuraging og'risa darmon bo'lolmas,
Qishlog'imga qaytgim keliyapti, ona!

Menga torlik qilar ko'chalari ham,
Insonlari g'alat, ko'zlarimda nam,
Yiqilisang qo'lingdan tutmasdi hech ham,
Qishlog'imga qaytgim keliyapti, ona!

Soddadil, mehribon qishloq odami,
Shaharda sofdillar, onajon qani?
Hatto, qo'rqib bosasiz har qadamni,
Qishlog'imga qaytgim kelyapti, onal

Qishloqda hech kimdan shubha qilmaysiz,
Barchani tanisiz, yolg'iz qolmay siz,
Xavotirlar olib bedor bo'lmaysiz,
Qishlog'imga qaytgim kelyapti, onal

Men sizni sog'indim juda-juda ko'p,
Tizzangizga boshim qo'yayin bir xo'p,
Jannat hidlariningiz qo'msayapman xo'p,
Qishlog'imga qaytgim kelyapti, onal

Otam "jonim qizim" deganlarini,
Bobo-buvim duo qilganlarini,
Juda ham sog'indim yaqinlarimni,
Qishlog'imga qaytgim kelyapti, onal

Shaharda ko'p kimsa ko'chada yashar,
Hatto, uyi borlar ko'chaga shoshar,
Axir, biz odamzotga mehr yarashar,
Qishlog'imga qaytgim kelyapti, onal

Foydasi bo'lmadi, xo'p qildim ta'na,
Toza havo yetishmay qolyapti ona,
Nafasim bo'g'zinga tiqilar yana,
Qishlog'imga qaytgim kelyapti, onal

MEN SENI SHUNCHAKI SEVMAGAN EDIM...

Ishqing g'unchaladi, titroq qalbimda,
Butun bir dunyoni unutgan edim.
Ishqim singib bo'ldi, sen deb ilginga,
Men seni shunchaki sevmagan edim.

To's-to'olon bo'ldi butun hayotim,
Izmidan chiqqandi, hatto xayollar.
Sevgidan topmadim, nahot najotim,
Sevgi gunohnidi aytimg, yoronlar?!
Men seni shunchaki sevmagan edim.

Hayo dedim ishon, hayo muqaddas
Shu sabab jimgilni men sevgan edim.
Yo'limdan chiqsang ham ishqqa basma-bas
"Men seni hech qachon sevmayman", - dedim.

Ishqing ozorladi, dard berdi menga,
"Shu ekan qismatim", deb ketadim.
Ko'p bora aymogga chog'landim senga,
Sevgimi yo havas tushunaolmadim.

Sevding, sevganingda "sevdim" demadim,
Ketding, qaramading bir bor qayrilib.
Qiz bola otaga "nomus" degandim,
O'riyatim sabab qoldim ayrilib.

Ishqing g'unchalari to'kilyapti, kel...!
Ko'rib ketmay-sanmi ahvolim nechuk?
Ishqing yelkanin tort va men tomon yel
Ko'zyoshlar daryosi bo'lmaydi chuchuk.

Men seni shunchaki sevmagan edim,
Sevgimga iqrorman hayosizlikda...!

RAVSHANJONOVA SITORA JAHONGIR QIZI

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 1-kurs

AYVONIMDAN KETMA QALDIRG'OCH

Bahorning ilk kunlari yer bag'irlab uchgansan,
Samoni-da, fazoni - butun yerni quchgansan.
Unutdi deb o'ylama: ayoz bo'y'i kutganman,
Men bilan qol, ayvonimdan ketma qaldirg'och!

Tong saharda uyg'otasan dehqonni:
"Kech bo'ladi, qish kelmasdan ek donni".

Sog'intirma, ko'p kutdirma bu jonni,
Men bilan qol, ayvonimdan ketma qaldirg'och!

Agarda men kuylasam, mayin kuyim bo'lgan - sen,
Xushbaxt navo targatuvchi sho'x bulbulim bo'lgan - sen,
Sen kechiksang agarda xon-u moni kuygan - men,
Men bilan qol, ayvonimdan ketma qaldirg'och!

* * *

Jaholatga qarshi ma'rifat
Zamona, zamona, zamona ajib,
Ajoyib hodisa bo'lmogda voqe.
Yomonlar istagi bir zunda vojib.

Odamlar hayoti o'tmogda zoqe.
Tafakkur ahliida qolmadi toqat,
O'z dushmanlariga ishonar inson
Ikkovi o'rtasida kurash toabad.

Yomonga yaxshi-yu, yaxshiga yomon.
Aslida otamiz, onamiz bir-ku,
Aslida barchamiz qarindosh-qondosh.
Bizni ulg'aytirgan shu ona Yer-ku,

O'z mehrin ulashgan mehribon quyosh.
Shunday ekan nega odamzod
Bo'ylik uchun bir-birin pullar?
Bashariyat uchun tugalmas isnod.

Erkin insonlarni atashar "qullar"!
Nahot shuncha tubandir inson,
Lahzalik rohat-chun og'uni yutar.
Termulib yo'lliga jaji, mitti jon.

Farzandlari uning kelishin kutar.
Yo Rab, bu ne hol? Fojia, hayhot!
O'zbek ayolida qolmabdi hayo!
Qani o'zbeklardagi qanoat, sabot.

Qayda qoldi o'shal latofat, ibo'zi!
O'zgaga o'xshashga harakat qilib,
O'zlikni unutib qo'ymang ayollar.
Yot madaniyatni qonun deb biilib.

O'zbekni unutib qo'ymang ayollar.
Bundan sizga ne naf-foyda topmassiz,
Oxiri pushaymon bo'lib qolasiz.
Balki eng badavlat bo'la olmassiz.

Ammo eng baxtli inson bo'lasiz.
Muhimi farzandlar kamolin ko'rmog,
Vatanga sodiq bir inson bo'lishlik.
Har lahza Vatanning jamolin ko'rmog,
Birov yenga olmas qalqon bo'lishlik.

YOLG'IZLIK

Yolg'izlik, yaxshisan bunchalar,
Azobli ko'ngillar naqshisan.
Yomon deb atashar qanchalar?!
Yolg'izlik, bunchalar yaxshisan!

Sen yolg'iz sirdoshim, hamdamim o'zing,
Sen bilan o'tmoqda bolalik chog'im.
"Sukunat" eng dardli, eng shirin so'zing,
Sen bilan gullarni egasiz bog'im?

Yolg'izlik yomonmas, yolg'izlik yaxshi,
Undan-da sodiqroq do'st topolmadim.
Yolg'izlik armonli ko'ngilning naqshi,
Undan-da yolg'izroq do'st topolmadim.

U menga qadrdon: qalbm ezilsa,
Ko'zimga yoshlarni tizib qo'yadi.
Nogahon kimgadir qadrim sezilsa,
Ko'ziga yoshlarni tizib qo'yadi.

Men undan o'rgandim sabr qilishni,
Kutdim, kutaverdim u bilan birga.
Yurak yig'lasa ham shodon kulishni
Garchi og'ir bo'lsa-da buyurdim dilga.

Yolg'izlik, yaxshisan bunchalar,
Armonli qalbimning naqshisan.
Yomon deb atashar qanchalar?!
Yolg'izlik, bunchalar yaxshisan!

SHE'RIM, O'ZING YAXSHISAN!

Necha kun, necha oy, necha yil izlab,
Charchadim bir dona dardkash dil izlab,
Hatto begonaning itini sizlab,
O'zingdan yaxshisin topmadim, she'rim!

Qorong'u kechamni yoritadi oy,
Qalbimdan dardlarim toshar misli soy,
Nahot, shuncha vaqtimni berib qo'ydim boy?
O'zingdan yaxshisin topmadim, she'rim!

Sen o'zing dardkashim, hamdamim o'zing,
Qalbinga yagona malhamim o'zing,
Umrin davomida mahramim o'zing,
O'zingdan yaxshisin topmadim, she'rim!

Ortig'i kerakmas o'zingdan bo'lak,
Sensan qalbimdagi pokiza tilak,
O'zgaga sirini ocholmas yurak,
O'zingdan yaxshisin topmadim, she'rim!

BIR JUFT FARISHTA

Negadir ko'zlarim yoshga to'lgan payt
Yodimga tushadi otam-u onam.
Nogahon bir tikan ozor bersa gar,
Ko'zimga zim-ziyo bo'lar bu olam.

Bu hayot yo'lida gayta va gayta
Necha bor yiqildim, necha bor turdim.
Qaro kun kelganda ming afsus ayta
Kim do'st-u, kim dushman ekanin ko'rdim.

Bu ko'zlar bezordir xiyonatlardan,
Aldovlar qalbimni qildi ming yara.

Xayollar besartad bo'lsa-da garchi,
Mening xayolimda bordir chegara.

Nafakat xayolda, balki qalbimda,
To'siqlar to'sadi mening yo'limni.
Zaharli tikanlar tig'siz tilsa-da,
Ularga cho'zaman alvon qo'limni.

Xayolim sathadi jahannam kabi
Meni asta-sekin domiga tortar.
Uning tikanlari qo'limga emas,
Bu xasta yurakning tubiga botar.

Tikanlar naqadar chuqur botmasin,
Qanchalik azobli bo'lsa ham yana,
Bu hayot hali ham etmoqda davom.
Kel, sen ham atrofga bir to'yib qara.

Shu on bir qo'limdan otam tutsa gar,
Ikkinchi yonimda onamdir hamroh.
Oллоh jannatiga hurlar kirsar gar,
Ular farishtadir, men esa gumroh.

RAHIMOV RO'ZIMBEK JO'RAQULOVICH

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi, 1-kurs

YETIM OTA-ONALAR

Buyuk ne'mat bililib bir parcha ethi,
Uning kamoliga izlab choralar.
Qoraga bo'yabda shu ikki betni,
Bolam deb rizq izlab ming ovvoralar.

Farzandidan yetim ota-onalar,
Tayanchi sakkizta hammai norg'ul.
Istasa tog'larni pora-poralar,
O'zidan ortmaydi sakkiztadir ul.

Faqat unsiz yig'lar ul bechoralar,
Farzandidan yetim ota-onalar.
Bugun boqolmaydi sakkizta farzand,
Sakkiztani boqqan ota-onalar.

Sakkizta bo'lsada har biri arzand,
Kelib qolar deya umidxonalar.
Farzandidan yetim ota-onalar,
Bolasin boshini silab erkalab.

Mening tayanchim deb necha boralar,
Ikki bukildi yu qoldi emaklab.
Tag'in sochlariga oq ham oralar,
Farzandidan yetim ota-onalar.

Dunyo jilvakordir ham ohanrabo,
Do'zaxga aylanar ora-choralar.
Go'zal hurliqodir, yo bir dilrabo,
Derazadan asta xorg'in mo'ralar.

Farzandidan yetim ota-onalar,
Ota-ona bir yon va farzand bir yon.
Dunyo esa olis farzand quvlaydi,
Jannatni axtarar farzand ter botib.

Onalar poyida jannat uvlaydi,
Erta-kech dilbandin dioxonalar.
Farzandidan yetim ota-onalar,
Mol-dunyo kerakmas ota-onaga.

Tillo-zar kerakmas ota-onaga,
Bir bor nazar tashlang shu nurxonaga.
Farzand yo'lin poylab dili poralar,
Farzandidan yetim ota-onalar.

Shu bir juft issiq non, ozgina mehr,
O'zingga dushmandir nafrat va qahr.
Bir og'iz shirin so'z eng oddiy sehr,
Shunda ko'ngil to'lar, dil gulxonalar,
Farzandidan yetim ota-onalar.

NAVULLAYEVA MALIKAXON ABDUSALOM QIZI

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi, 1-kurs

ONAJONIM

Onajonim, baxtimizga bor bo'ling,
Ko'milaylik sizning daryo mehringizga.
Siz biz uchun dunyodagi eng chiroyli
Oftobro'yim, quyosh ham lol sehringizga.

Dunyo ichra mo'tabarsiz, ey onajon!
Mugaddasdur har bir bosgan izlaringiz.
Alla aytib bedor o'tgan tuningizga
Yarolsak baxt deymiz o'g'il qizlaringiz.

Ardog'ingiz yo'limizni ravshan etdi.
Oq fotiha yo'limizni etsin ravon.
Oqday olsak bergan oppoq sutingizni,
Manziliga yetgay bizning katta karvon.

BAHOR KELDI SENI SO'ROQLAB

Yana bahor keldi seni so'roqlab,
Yana olam nurlı, atrof munavvar.
Bahorda topgandim, seni malagin,
Yana yonimdasan, ro'yob tilagin.

Qushlar navosiga to'limoqda shahar,
Atrof tarovati senga hamohang!
Senga o'xshashini hech topolmadim,
Yana bahor, sendan o'zga topolmadim.

Yana bahor keldi seni so'roqlab,
Yonimda gulchambar taqan sen eding.
Orzular ushalib birgamiz yana,
O'shal bahor bo'lib qaytyabman deding.

Muhabbat sofigi bahordagi bog',
Qizg'aldoq baldog'i senga munaqqash.
Bodom gullaridan chiroyli yuzing,
Menga atalgandir dildorim yaklash.

Yana bahor keldi seni so'roqlab,
U kabi sen meni aylaysan miftun.
Sen mening to'rt fasl bahorim o'zing,
Aytgin gulim, u sendan olganmi husn?

Go'zalim bahorim sen bunga guvoh,
Tog'larda chopqillab yuribmiz yana
Ko'm-ko'k adirlarda malagim bilan,
Senga mudom peshvoz chiqyapmiz yana.

Bahorim sen menga yana hamrohshan,
Gulimni qo'lidan tutyapman mana.
Sen bizni hali ko'p uchrashitirasan,
Men baxtli bo'laman, bahorim, senla...!

YODLOV

(do'stim Bobur xotirasiga)

Nola-yu ohlardan zulmat bo'ldi tun,
Safmizdan ketdi bir bag'ri butun.
Barchaning ko'zini yoshga to'ldirib,
Tong ham xorg'in otdi betobdek butun...

Kechagina shodon yurardik birga.
Hayotni qadrlab sevardik birga.
Yoshlikning zavqini surardik birga,
Nega tashlab ketding bizlarni do'stim.

Yuraklar ming pora bo'ldi beayov,
Ko'z yoshdan daryolar to'ldi beayov,
Ochilmoq istagan g'uncha so'ldi-yov,
Nega tashlab ketding bizlarni, do'stim?!

Hayotning achchig'in ko'rmagan do'stim,
Yigitlik davrini surmagan do'stim,
Nega tashlab ketding bizlarni do'stim?
Ko'zin yoshlab ketding qizlarni do'stim.

YANGI YIL-YAXSHI YIL

Dillarni dillarga payvasta qilib,
Kayfiyat ulashding bizga yangi yil.
Har onim shundayin bo'lsinda dedik,
Bardavom bo'laver ajib yaxshi yil.

Ko'ngillar nurlarga to'ldi sen ila
Sen ila yuraklar jumbushga keldi.
Bugun biz mag'rumiz yutuqlar ila
Yana odimlaymiz senla, yangi yil.

Dasturxon to'lad i noz-u ne'matga,
Shukrla kaftimiz duoga tudik.
Bu kun biz yutuqlar ila mag'rurniz,
Maqsad sari yana bir qadamni qo'ydik.

Oila davrasi bugun mehri,
Bugun hamma joyda ilqlik hokim.
Soniyalar sanab kutabimiz seni,
Yangi marralarni keltir, yangi yil.

Mehrga zor qalbga mehrlar bergin,
Baxtli oilalar ko'payaversin.
Muhimi, doimo tinch bo'lgan yurtim.
Sathdlari doim tinch bo'laversin.

Behisob shukrlar aytaman bugun,
Bugun baxtiyorman tirikligimdan.
Eski yil men sendan oldim ko'p yutuq,
Men ham shod vatanga kerakligimdan.

Do'stlarim, qadrl i opa, akal ar,
Bugun men tilayman ezgu tilaklar.
Yangi yil barchaga baxt olib kelsin.
Bizla bo'lsin doim bizga keraklar.

SADULLAYEVA DILNOZA ERDOSHEVNA

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 1-kurs

XALQIM

Qancha azoblarni ortda qoldirib,
Qancha sitamlarni ichingga yutib.
Qancha g'animlarni kurashda yiqib,
O'zingdan aylanay, o'zingdan xalqim.

Yelkangda ketmon tinmay san tun-kun,
Dushmanlar ortingdan tiqarlar nishin.
Shunda ham chidab kutarsan baxting,
O'zingdan aylanay, o'zingdan xalqim.

Senga o'xshamaydi hech qaysi millat,
Boshingni ko'tarmay qilarsan mehnat.
Shuncha ish bajarib, qilmay san minnat,
O'zingdan aylanay, o'zingdan xalqim.

Hech bir xalq sen kabi farzandim demas,
Sen kabi bola kelajagin o'ylamas.
Balki shuning uchun sendek qarimas,
O'zingdan aylanay o'zingdan xalqim.

Yuzing, quyosh kabi porlagay,
Ko'zing, ma'nolarga chorlagay.
Bug'doyrang yuzingdan o'zim o'rgilay,
O'zingdan aylanay o'zingdan xalqim.

Qancha buyuklarni yetishtirgan sen,
Yurtingni olamga tanitirgan sen.
Farzanding Vatan-chun berib qo'ygan sen,
O'zingdan aylanay, o'zingdan xalqim.

Boringa shukur, yasha doimo,
Baxt qushi boshingda porlagay humo.
Yurt kelajagi-chun qilgin sen duo,
O'zingdan aylanay, o'zingdan xalqim.

ONAJON

Dunyo g'amlari qaddini bukib,
Qalbdagi darding daryolar bo'lib.
Qayg'u fig'onlari to'lib tohsa,
Shunda ham yashaysiz onajon kulib.

Bilaman, onajon ko'p hafa qildim,
Nima qilsam qarzim uzilar ona.
Onajon qo'lingizga dunyoni tutdim,
Bitta allangi-uchun yetmadi ona.

Qancha joylarni kezdim men uzoq,
Ko'rdim yaxshi-yu yomonni ko'proq.
Ba'zilar qo'ydlar menga ko'p tuzoq,
Sening duoning-la tirikman ona.

Sizga farzand bo'lib, nima qildim men,
Na bir qo'lingizdan ishini oldim men.
Katta shaharda yuribman ona,
Mehribonim seni juda sog'indim.

Hammani o'stirding yuksagim onam,
Lek sening o'rningni bosolmas hech kim.
Seni sog'indim ko'zlarimda nam,
Menga sendek mehr bermaydi hech kim.

To'qqiz oy qorningda ko'tarib ona,
Yana uch yoshgacha tarbiyangdaman.
Bir umr asraysan yurak qo'rida,
Shunda ham biz ahmoq mehr kutamiz.

Oz qoldi yoningga boraman ona,
Yangi yil nafasi eltadi meni.
Diydoringga to'yib kelaman ona,
Yana maqsadlar cho'lg'aydi meni.

Onalar qanday zot ekanda do'stim,
Yana biz bilmagan qanday siri bor.
Bizning o'lovimizga yemaydi balkim,
Qalbida quyoshdek so'nmas nuri bor.

TOSHTAMOVA HILOLA RO'ZMAT QIZI

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 1-kurs

VATANIM-ONAM

Vatanni nima deb so'rsalar agar,
Ilk yotgan beshigim izlab qolaman.
Vatanni rasmini chiz desalar gar,
Onanning siymosin chizib beraman.

Uyimsan ostonaga mehr to'shagan,
Emaklar chog'imda qo'lim ushlagan.
Onam emasni u qo'ldan kelgancha,
Poyimga imkonin sochib tashlagan.

Sen borsan Vatanim, porloq yulduzim.
Har tonggi musoffo, nurli kunduzim.
Vatanim men uchun farishta onam,
Qalbm to'ridadir ming bitta so'zim.

Bag'ringda ulg'aygan ajdodlar azal,
Nodira, Uvaysiy to'qigan g'azal.
Men ham ularga bir qiyos bo'lsaydim,
Onam chiroyidek chiroying go'zal.

Kunlar kelib ismim tanisa dunyo.
Soyangda ulg'ayib ota makonim.
Fikrimni barchaga qilaman ro'yo,
Ona Vatanim sen-O'zbekistonim!!!

G'OLBIMIZ BUGUN

Xotirlab bugun o'tmish sarhadin,
Ajdodlar ruhini yodga solaman.
Varaqlab o'tirib har sahifasin,
Urush yillarini esga olaman.

Yerlarda yotgan mayitlar sanab,
Sezdim yo'qotish-u zahmatlar ulkan.
Betinim otilgan o'qlarni sabab,
Ariqdagi suvdek qonlar to'kilgan.

Ochlikdan ingraydi odam bolasi,
Har yonda o'qlarni gumburlar.
Ayolning "Rahm qil"-degan nolasi,
Qaydanam yog'ilgan bunday balolar.

Yakunni ko'zlagan so'ngsiz bu urush,
To'rt yil deganda to'xtadi, tindi.
Qora kunga o'xshash bir daxshatli tush,
Evoh, necha ming tirik jon oldi.

Yo'qotdi xalqimiz qancha qudratni,
Millarning g'ururi minglab ajdodni.
Go'daklar yetim, ayollar beva,
Shavqatsiz qirilgan necha oila.

O'g'lini yo'qotgan onalar uchun,
Yalang'och qolgan bolalar uchun,
Urushda jon bergan bobolar uchun,
Biz qudratli xalqimiz, g'olibimiz bugun!

YAKKATUTIM

Yakkatut ko'rkam qishloq,
Bag'rida qaynar buloq,
Qo'y-qo'zi, echki-ulov,
So'lim suvli qishlog'im.

Ziyoratgoh bor bizda,
Oromgohlar yoz kunda,
Yashaymiz shu jannatda,
Yozi salqin qishlog'im.

Sersuv zaminim, o'lkam,
Maqtamoqda bir qalam,
Ikki daryosi ham bor:
Ko'ksuv hamda Chotqol.

Baland adir-qirlari,
Sayroqi bulbullari,
Qor erimas tog'lari,
Qishi qalin qishlog'im.

Nodir giyoh topasiz,
Ham murodga yetasiz,
Ko'rib e'zoz etasiz,
Tuti darmon qishlog'im.

Yogimli har tonglari,
Kunday yorug' tunlari,
Mehmondo'st odamlari,
O'zi mezbon qishlog'im.

Tabiati ajib qasr,
Uni bezar to'rt fasl,
Bog'laridir yam-yashil,
Budir mening qishlog'im.

KUZ IFORI

Bu yil kuzning ifori,
Odamlarga xush yoqdi.
Ko'chalarda jildirab,
Loyqalangan suv oqdi.

Yomg'irning nam havosi,
Buni qo'yning mayliga.
Sarg'ish tusli xazonlar,
O'xshaydi gul sayliga.

Bargin yerga to'shab,
To'nin yechgan teraklar.
Sovuq bo'yib hukmron,
Bizga o'qir ertaklar.

Har bir tongni bezab,
Qahratonidan sen darak.
Qor parchaga o'xshash,
Bu shudring bo'lsa kerak.

Olam xuddi egnida,
Zangori ko'ylak kiydi.
Qishning sovuq g'ishtlari,
Atrofga devor qurdi.

TO'RAJONOVA MUHLISA SHUHRAT QIZI

Matematika va informatika yo'nalishi, 1-kurs

USTOZ

Ko'ngillar quvonar o'ylasak bir zum,
Qalblarga o'zgalar qilganda hujum.
Qilolmay turganda bitta bir hukm,
Qo'llardan tutib yo'l bo'shladi ustoz.

Ishonch ham bo'ladi ba'zida vayron,
Kulib turar ulug' yuzla-charog'on.
Bundan men ham, balki hammadir hayron,
Shu kabi sirlimi bu buyuk ustoz.

Asrlar davomida tillarda doston,
Ular bor biz mana yuribmiz shodon.
Bilimli, aqlli, zukko bolajon,
Onamdek mehribon bo'lar bu ustoz.

Gohida faylasuf, goh matematik,
Qattiq qo'l, lek u siz hayot ham kentik.
Otam bor yana muallim men tetik,
Padardek qadrlil va zabardast ustoz.

Qancha yozay ayting unga she'r-bayot,
Balkim duolarda tilarman Jannat.
Qalbdadir va yoki yonimda hayot,
Alloh rozi bo'lsin sizlardan ustoz.

OTA

Yangi kun boshlandi otdi yana tong,
Buni muhokama qilolmaydi ong.
Yurak dukullaydi huddi urib bong,
Sizdan olisdaman sog'indim ota!

Mehringizni qo'msab o'tanar dilim,
Yaxshi so'z aytishga bormaydi tilim.
Aytidingiz, o'qi, olgin sen ilm,
Sizdan olisdaman sog'indim ota.

Yo kunda, yo tunda yo'qdir halovat,
Balkim gunohim ko'p shundan nadomat.
Oilam uzoqda bu bo'ldi-ku odat,
Sog'indim, lek ayta olmayman ota!

Tun yana she'r bitdi telba qizingiz,
Bo'lmoqlik niyatim yaxshi izingiz.
Yorug' qilay Jannatlarda yuzingiz,
Sog'indim lek ayta olmayman ota.

Duolaringiz sabab men sog'omon,
Talpinadi jajji qizingiz siz tomon.
Qarang ko'z yoshlari tinmaydi hamon,
Sizdan olisdaman sog'indim ota.

Qabul qilgin Robbim, qilgan duoyim,
Ular borlig'indir dardga shifoyim.
Namozlarda qilgan bir iltijoyim,
Panohingda asra ota-onamni.

SHUKRONA

Kutib yashayapmiz qanday mo'jiza,
Balkim ko'rayapmiz kunda bir aza.
Nahot tutmayapti bizni vasvasa,
Tongga yetmoqlik ham asli bir ne'mat.

Beg'ubor davrimiz, o'rdi bolalik,
Unda bilimmasdi ne g'am, ne shodlik.
Nechuk kattalarda ochiq qalloblik,
Tongga yetmoqlik ham asli bir ne'mat.

Quyosh charaqlaydi ko'zim u tomon,
Yuribsanni quyosh bobo sog'-omon.
Seni kutayotir olamlar hamon,
Tongga yetmoqlik ham asli bir ne'mat.

Unda bomdod bordir, unda hikmat bor,
Bir olam ma'noyu, bir katta xat bor.
Kulib turgan yuzda saminiyat bor,
Tongga yetmoqlik ham asli bir ne'mat.

Qanday go'zal bunga aytmoq shukrona,
Yashayapman demang surib davrona.
Hayollarim bo'ldi mana hamxona,
Tongga yetmoqlik ham asli bir ne'mat.

NOTINCH QALB

Ertal tongdan ahvolim yomon,
Bilmam nedan ko'ngillar giryon.
Sokin emas huddi bu osmon,
Qalbim notinch, sog'misiz ota?!

Yogmayapti aytilgan so'zlar,
Dil yig'laydi yolg'on bu ko'zlar.
Bizni sordi hattoki o'zlar,
Qalbim notinch, sog'misiz ota?!

Taskin bermas bu azim shahar,
Chunki yo'qsiz har tongda sahar.
Siz bor boshim samo barobar,
Qalbim notinch, sog'misiz ota?!

Dardlaringa to'lib oq qog'oz,
Balkim baland bo'lyapman oz-oz.
Aytishganday men masxaraboz,
Qalbim notinch, sog'misiz ota?!

Siz bor men ham jaji qizaloq,
Yonimdasiz men o'yinqaroq.
Mendan olisdasiz bir so'roq,
Qalbim notinch, sog'misiz ota?!

TO'RONOVA ZARINA AKRAM QIZI

Xorijiy til va adabiyotu yo'nalishi, 1-kurs

ORZULAR SARI

Yaralgandir yetti olam,
Bu poyonsiz jahonda.
Barcha mo'jaz mo'jizalar,
Yashiringan makonda.

Asli buyuk mo'jiza bu,
Robbim quli sanalar.
Qadri baland bu ongli zot,
Orzu uchun yaralar.

Ko'kka boqib tikilsak gar,
Ilhom berar u dilga.
Yulduzlardak yorqin orzu,
Shunda tushar bu tilga.

Gar qalbimiz sado bersa,
Qulog solib bariga.
Qaynab toshar ezgu niyat,
Yuragimiz qabriga.

Bu olamni yaratgan,
Qancha xayolparastlar.
Magsadlarichun kurashgan,
Hayotidan sarmastlar.

Devonalik bo'lsa orzu,
Mayli bo'ling devona.
Bo'ling maralar xoqoni,
Lol qolsin bu zamona.

AJIB HISLAR

Oshiq bo'lib kuyladim,
Muhabbatdan so'yladim.
Qalbm hislari ila,
Keng olamga sig'madim.

Quvonchim toshib ketdi,
Zavqdan shodon ko'ngilga.
Qanday buyruq berayin,
Qaysar, nodon bu dilga.

Qanot qoqib uchsam deb,
Goho orzu qilardim.
Shoiralik osonmas,
Buni dildan bilardim.

Yozarman bor hasratim,
To'kib-to'kib dilimdan.
Muhabbat so'zi tushmay,
Taktor chiqar tilimdan.

Ne bo'lganin tushunmay,
Hayron bo'lib qolardim.
Gar o'shanda bilganda,
Uni kuyga solardim.

Eh muhabbat, muhabbat,
Meni ne ko'yga solding.
Qalbmimdagi hislarim,
So'ramay o'tga olding.

AYOL

Jannat bog'laridan yaralgan ayol,
Hushbo'y anbarlardek taralgan ayol.
Mehr so'zin yozmish ko'zin oqiga,
Qorachug'i malham qalblar dog'iga.

O'zing bo'lding murg'ak qalblar makoni,
Qancha qaro ko'zlar mohitoboni.
Tog'-u tosh eriydi sening qo'lingda,
Gullar paydo bo'lar yurgan yo'lingda.

Bog'larda gullari so'lmagan ayol,
Mehnatda qo'llari tolmagan ayol.
Olamning bir ajib mo'jizasi,
G'arazlik bilmagan o'jizasi.

Bosh egib ta'zimda butun bir borliq,
Ko'ksingda yetmas joy taqmoqqa yorliq.
Surating husnichun kerakmas bo'yoq,
Go'yo sen bizlarga porloq bir mayoq.

TURG'UNPO'LATOV DIYORBЕК RO'ZIMAMAT O'G'LI

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 1-kurs

Men shoirlikka qiziqishim yo'qligini azaldan sezganman.
Yozuvchilikning ma'lum bir qirralarini sezgan holda kichik janrlardan ijodimni boshlashga ahd qildim. Avvalo, yozuvchilik bilan shug'ullanishni boshlagan har bir insonning oldiga birinchi navbatda, ona, Vatan, do'stlik, vatanparvarlik, odamiylik, oila, mehr-muhabbat va juda ko'plab mavzular ko'ndalang chiqadi. Men ham yozuvchilarimiz an'alarini davom ettirmoqchi bo'lib, hayotiy realikka yaqin mavzularda yozishni o'z oldimga maqsad qilib qoydim.

ONA...

Qish faslining oxirgi kunlaridan biri... Bahorning kirib kelishi - Quyoshning jonsiz nurlaridan unib borayotgan mayсалarning ulg'ayib borishi bilan belgilanadi. Shunday kunlardan birida Toshkentdan qaytadigan bo'ldim. Namanganga ketadigan mashina izlay boshladim. Shaharning chang-to'zon havosi odamni behalovat qiladigan darajada. Dimoqqa qattiq uriladi. Farrosh ayollar yollarni supurayotib bor ovoza gapirishlari - yu, do'konni ko'rsatib, xo'rozqand so'rayotgan bolaning nolasi... Shunda qorachadan kelgan, qoshlari juda ham qalin, 40 - 50 yoshlar chamasi kastyumshimdagi bir akaxonimiz (turishidan tuzukroq joyda ishlasa kerak) "Kapitva" da kelib to'xtadi:

- Namanganga bir kishi bo'lsa ham yuraveramiz;
- Bir kishi bilan hammi?
- Ha, menga boshqa odam kerakmas. Bitta odam bo'lsa bo'ldi. Eshikni ochib chiqayotsam:
- Faqat bir shartim bor.
- Qanaga shart?
- Gaplashib ketamiz.
- Mayli, mayli.
- Yaxshi bo'ldi. Men o'zim ham har xil yoshdagi, har xil

xarakterdagi insonlar bilan subbatlashishni yaxshi ko'raman. Xursand bo'lib, yolda ketyapmiz. Mashinaga ilingan sun'iy qulupnaydan taralayotgan xushbo'y hid odamga xush yoqadi. Gapdan gap chiqib :

- Namanangni qayerdansiz?

- Tumanidan.

- Ozingiz qayerdansiz? Shahardansiz?

- Yo'q. Mingbuloqdan.

Shu bilan O'zbekistonning iqtisodida Namanangan viloyatining o'rni, roli, obro'si, qaysi sohalar boyicha yetakchiligi-yu, qaysi sohalarida hali no'noqligini o'zimizcha tahlil qila boshladik. (Yuqorida aytganimdek, har xil xarakterdagi insonlar bilan tez chiqishib ketaman). Bir - ikki og'iz gap boshlab qo'ydim, davomini o'zi olib ketdi.

Gapdan gap chiqib, shunday insonning ota - onasi qanday insonlar bo'lgan ekan degan, ma'nodagi savol berib ko'rdim. Muomalali, tabiiyati, xushro'y, suhandon, o'qimishli, (diniy bilimlarni ham mustahkam egallagan ekan)... Har tomonlama yetuklikka erishgan shaxsning ota-onasi haqida kimning ham bilgisi kelmaydi?

- Ota-onangiz hayotimlar?

U og'ir xo'rsinib, chuqur tushkinlikka tushgan holda bir menga qarab qoydi.

- Biz yoshligimizda otamiz otib ketganlar onamiz tirik. Onamiz ikkita o'g'lini deb bironvga turmushga chiqmaganlar. Shu bolalarim o'qimishli bo'lsin, poytaxtda ishlasin deb bir oylik o'quv markazlari bo'lardi. O'sha yerga berganlar. Pulini to'lab turib, ust - boshini qilib tursa, o'qiyverardim. Shu joyda o'qidim. Onam bo'lsa, qo'ni-qo'shnilarning kirini yuvib, ovqatini qilib berib, farzandlariga enagalik qilib, hozirgi kunda aytganda, "mardkorchiilik" qilib meni o'qidilar. Men yaxshi o'qidim. Oliy o'quv yurtiga kirdim. Alloh Taolo solih qiz nasib qilgan ekan, uylandim. Lekin afsus onamni qachon borib ko'rganimni esolmayman...

O'zim bilan o'zim, ish bilan, bola - chaga bilan bo'lib onamni bir necha yil ko'rmanman. Shuncha yil o'tibdi - yu, xotinim bilan dasturxon ustida nonushtada o'tiribmiz. Xotinim xursandchilik bilan, bunaqa tabassum hali ko'rmanandim.

- Dadasi.

- Ha.

- Ertaga shamba. Falon restoranni gaplashib qo'ydim. Bir ayolga pul jo'natdim. Chiroyli liboslarni kiyib turadi. Siz borib, olib kelib tushlikka mehmon qiling. Buyurtma qilib qoydim. Kulib qo'yishidan ichim g'ash bolib qoldi. Birota ham gapiga tushunmagan ohangda:

- Nima deysiz?

- Bir ayolni gaplashib qo'ydim. Yasanib turadi. Olib kelib mehmon qilasiz.

Alaylab yonimda ikkalamizdan boshqa odam yo'qligini sezib, ikki tomonimga alanglab qaradim.

Ohangimni o'zgartirib:

- Menga aytapsizmi?

- Voy, dadasi - yey. Sizga aytapman.

Felim tez o'zgaradi. Birpasda jahlim chiqib, xotinimning gaplariga norozilim ohangda yana:

- Men unaga odam emasman. Kelinlarning oldida, og'llaringni oldida shunaga deysizmi?

G'ashligim battar ortdi. Bir nimadan ko'ngli to'lmayotgan odam qiyofasini yasab, yuzimda aks ettirdim. Tushlik qilmay ishga ketdim. Tushlikda uyda ovqatlanish har doimgi odat. Tashqarida ovqatlanmasdim. Kelsam tushlik tayyor. Asta mamuniyat bilan gap boshladi:

- Dadasi, men yolg'on gapiryapmayapman. Hazillashayotganim yo'q. Pul jo'natdim - mendan ko'zini uzdi - da, ro'molini to'g'irlab qo'ydi, - Ust-boshini kiygizib chiroyli qildirib qo'ydim. Sizni o'sha yerda kutib o'tiribdi. Borib mehmon qilib kelimg.

Xayolingma ming xil savol keldi. Qayerdan bilib qoldi ekan degan ichimda bir narsa... (Meni sinayaptimikan? Kim ekan u ayol?) Har xil xayolga bordim. Zarda bilan do'q qildim (Xotinidan qo'rqan erkak do'qon - do'qon qiladi - da!)

Ish o'xshamadi. Kechqurun qaytib keldim. Yana o'sha gap - dal Yotadigan xonamga kirib oldim. Orgamdan ergashib, izimdan qolmay keldi.

- Dadasi, - choynak va piyolani stol ustiga qoydi - da, piyolani arta boshladi, - nimaga tushunmaysiz? Kimligini nimaga so'ramaysiz? - qoshlarini yig'ishtirib. - Onangizni topdim... - Ukangizni topdim... Pul jo'natib yubordim. Onangizn yasantirib, falon restoranga olib boradigan bo'lishdi. Ziyofatga dasturxon ham tayyor bo'ladi. Ertaga

borib olib keling. Mehmon qiling.

Quloqlarim "Onangizni topdim" so'zidan boshqasini eshitmadi, shekilli. Gung qotdim. Ko'zimga bir muddat hech nima ko'rinnadi... Kechasi bilan yig'lab chiqdim. Onamni ko'z oldimga keltirdim. O'zi yemay yedirib, mehnat - mashaqqatlar bilan mardikorchiilik qilib o'qitga - yu, ko'zlarimni ko'r qilsa bu badbaxt dunyo! Xabar olmasam. Shunday o'ylayapman, shunday yig'layapman yostig'im hol bo'lib ketdi. Qani, tong olsa - yu, Namanganga yugursam. Tong ham o'tishi qiyin. Soatni qo'yavering, minutni minutiga, sekundini sekundiga qo'yib kutyapman. Kutyapman - u bir nimadan qo'rg'apman - o'lib qolsachit?

Tong otdi. Shafyorim keldi. Yo'lga tushdik. "Bo'l, bo'l, Bos!" - deyapman. Namangan yaqin bolsa ham, dunyoning u chetiday tuyulib ketdi (bormaganimga ham ancha yillar bo'lganini o'zim ham shu paytda sezdim). Yetib bordik. Ko'chamizga kiraverishdagi qassobxona hali ham o'zgarmadi. Do'konida faqat quruq meva sotadigan Xadicha xola esa, hali ham yosh, navqiron. Do'konining bir tomonini yomg'ir yuvgan edi. Hali ham turibdi. Ko'chamizdagi daraxtlarning yoshi ancha ulg'ayganga o'xshadi.

Ukam stulni ko'chaga olib chiqib beribdi. Chunki onam chiday olmaganlar-da! Uyda kutib o'tirishga sabrlari yetmagan. Qo'ni - qo'shni, qarindosh - urug', mahallaning hamma xotinlari chiqib olgan. Onam esa, qoshlarini uchirib - uchirib maqtanib o'tiribdi. "Meni og'lim poytaxtda ishlaydi-da. Katta ishda ishlaydi. Mashina olib yuradi og'limni! Mana, ko'ringlar. Ust - boshni zo'rini jo'natib yuboribdi. Kelyapti. O'zi mehmon qilarkan". Bolalarcha va beg'ubor maqtanib o'tirardilar. Ayollar esa, "Qandoq o'g'illaringiz bor - aa?", "Xudo bergan aa sizga?" deb har bir gaplardan so'ng orzu qilib aytib qo'yishadi. Xursandchiliklarini yashira olmay onamni quchoqlab olganlar ham topildi. Onam ularga maqtanyaptilar, maqtanyaptilar. Mashinamni ko'rib o'rmlardan turdilar. Kirib boryapman. Hammaning ko'zi menda. Mashinadan tushib oq onamning oyog'larini quchoqlab oldim. Kechirishlarini so'radim:

- Ona! Meni kechiring, ahmoq o'g'lingizni kechiring. Men o'zligimni, o'zimin unutib qo'ydim.

Shu payt, qancha yalinsam, qancha kechirim so'rasam shuncha ozligini tushunib yetdim. Onam esa, xuddi 20 yil birga yashagan,

mehrini his qilgan onalardak tabbassum bilan:

- Bolajonim, nimaga unaga deysan. Tur, bolam. Turagol. Sog'inib qolibsanda!

Onamning ko'zlaridan duv - duv yosh oqardi. Menga yupatishni o'rninga, o'zlarini ovuntiradigan odam kerak edi. Qo'llarini ushlasam, jonsiz qoldek. Quvvat qolmagan. Faqat tomir va suyakdan iborat bo'lib qolibdi. Yigirma yil avvalgi onamdan asar ham qolmadi. Yillar hijronining azobin tortgan yuzlari ajinlarga to'la. Sochlari sutdek oppoq.

Ukam ko'chadan biror narsa olib kirsam ham ukamni emas, meni maqtar ekanlar. "O'g'lim Toshkentda ishlaydi - da. Hamma narsa berib yuboradi. Umridan baraka topsin, ilohim".

Hatto bir qoshnim: "Qo'llaridagi hassani ham siz berib yubor-gannisiz?" - deydi. Bir necha yillab xabar olmagan bola qanday qilib hassa jonatadi?! Taajjublандim. Ona ekanda... Farzandining yomonini yashirib, yaxshisini oshirib maqtar ekan.

Yig'lab mashinaga o'tqazib, restoranga olib bordim. Yo'llarni birinchi marta korayotgandek hayron borardilar. Ichlarida yoq xursand. Yetib bordik. Hassada kirib boryaptilar. Qo'lliq'lab olganman. Hozirgi sharoitimga o'zingizni qo'yib ko'rsangiz edi... Dunyoda onamdan baxtli inson yo'q. Mendan esa baxtli farzand. "Mana o'g'lim, ko'rib qo'yinglar. Toshkentda ishlaydi. Meni eng chiroyli libos kiygizib, mehmon qilgani olib kelyapti" deb baralla aytmoqchi bo'lyaptilar. Lekin aytolmayaptilar, shekilli. Malikalarda qirib keldilar. Oftsiantlar ovqat, salat, sharbat olib kelishni boshladi.

- Ona, nimaga yemayapsiz? Oling.

- O'g'lim, - kantarinlik va tortinchilik bilan kulib qo'ydi - men yeyolmayman.

- Iya, nimaga oyi?

- Tishim yo'q meni, o'g'lim. Shu bir to'rg'am nonni piyoladagi choyga tekkizib yeb olsam bo'ldi.

- Nima deyapsiz, ona?

Ko'zlarini yerdan uzmay:

- Tishim yo'q, bolam.

G'alati bo'lib ketdim. Tanamdan muzdek ter chiqdi. Essiz, bilma-ganimni. Necha yillab ko'rmagan tishlarini yo'qligini qayerdan bilaman?!

- Onajon bugunq tish qo'ydiramiz.
- O'g'lim, qiyalib qolmaymanmi?
- Onani farzandi haqida qayg'urishini qarang. Yo'qligim payti u yiqda tursin, borlik payti ham oy'larkan.
- Onajon, uyim to'la pul. Qiyaladigan holatda emasman.
- Bugunning, hozirning o'zida sizga tish qo'ydiramiz.
- Jon o'g'lim, unaga qilma. O'g'illaring voyaga yetib qoldi.
- Qizlaringni chiqaradigan bo'lib qolgansan.
- Yo'q, ona. Unaga deb oy'laman.
- Ataylab onamga mos ovqat qildirib, qaytadan o'zim yedirib qo'ydim. Olib chiqayotib to'g'ri shahar markazidagi stamatoriya-siga olib bordim. Bir haftada davolanish ohiriga yetishini aytdi.
- Hujjatni ko'rsatsam:
- Iya, aka ertaga bo'ladi.
- Yo'q, yo'q. Ertaga emas, bugunq bo'ladi, bugunq!
- Aka sira iloji yo'q. Qolip olamiz. Tayyorlashga...
- Gapini sharta kesdim. Bir so'zli, qat'iyl, bir ishini o'rnida bajaradigan inson ekanligini sezdi, shekilli:
- Bo'ldi, ertaga asrga onangizni tishlari bo'ladi.
- Xursand bo'ldim. Endi esa, oldimda turgan yana bir muhim ish - onamga telefon olib berish. SIM kartasi bilan onanning qo'lga tutqazib:
- Onajon, mana bu telefon sizga. Men endi, sizni hech qachon yiqotmayman. Yana bir bor kechiring. Ahmoq oglingizni kechiring.
- Ilmos.
- O'zimni tutib turlamay yig'lab yubordim. Uylariga olib borib qo'ydim. Yana Toshkentga qaytdim. Kelyapman-u, telefonimga besh - olti marotaba telefon bo'ldi. Dunyoda insonning qalbini onadaga to'ldiradigan inson yo'q ekan. Chunki pul topdim, obro' topdim, uy, mol - dunyo, o'g'il - qiz... hammayoq topdim. Lekin onaning o'rnini hech nima to'ldira olmas ekan, hech bir inson bosa olmas ekan. Men ahmoq shu oddiy narsalarni ham bilmaganakamman. Uyg'a keldim. Telefon qildim. Onam go'shakni olib:
- Eson - omon yetib oldingizmi o'g'lim?
- Ha. Sizni duolaringiz bilan yetib keldim.
- Qiyalib qolmadingizmi?
- Ha yoq qiyalmadim. Shukur rahmat. O'zingiz yaxshimisiz?

- Meni oylama o'g'lim.
- Unaga demang oyi. Bizning baxtimizga doimo sog' - salomat bo'ling. Hali bunday yoshlardan ko'pini ko'ring.
- Rahmat bo'lejonim. Sizlarni baxtingizni ko'rish nasib qilganakan.
- Buning uchun Allohingga behisob shukrlar aytaman.
- Ertani orziqib kutapman. Asrda telefon bo'ldi. Go'shakni olsam, onam boshqacha ovoza.
- Ha, ona. Ovozingiz nega boshqacha?
- Tish, tish deb tishlariga uryabdiar:
- Mana, tishim bo'ldi. Endi hammaga o'xshab yeya olaman, o'g'lim.
- Onam ozida yo'q xursand. Xursandchiligi ichiga sigmaydi. Arzi-magan pulni deb onalarimizni xursand qilsa bo'ladi. Yana shanbani kutapman. Yana mehmon qilaman. Ikki kun qolib, ziyoratlashib kelaman. Kutapman, kutapman kelmayapti - dal' Payshanba bo'ldi - yu, sabrim chidamay tayyorgarlik ko'ra boshladim. Ertatong ukam telefon qilyapti. Nafasi tiqilgan holda xovliqib:
- Aka, onanning mazalari qochib qoldi. Tezda keling. Sizni so'rayaptilar.
- Telefon qo'lindan tushib ketganini bilmay qolibman. Hayron o'yg'a toldim. Derazadan qarasam shafyorim kelib, mashinaning u yer, bu yerini artiyapti. Shoshilganча chiqdim - u, "Bos, bos Namanganga" - deb baqirdim. Nima bolayotganini tushuna olmadi shekilli, shoshilib o'tirdi. "Hayda tez - tez!" Kelyapmiz. Qayerda ketayotganimizni ham bilmaydigan darajada ekanman. Shofyorim menga telefonga javob berishini aytib, tutib qo'ydi. Shundaygina sezibman. Qarasam ukam qilyapti. Atrofga boqsam, Popda patir bozorini oldiga yetib kelibmiz.
- Aka shoshiling, onam o'zlarini bilmay qoldilar. Shoshiling.
- Javob qaytarishga ham madorim qolmadi. Dunyo ko'zimga qorong'i bo'lib ko'rindi. Oxiri Namangan tumaniga kirib kelsam, yana ukandan telefon bo'ldi.
- Shoshilmay kelavering, onam vafot etdilar.
- Butun tanandan muzdek ter chiqdi. Ukamning gapi har bir hujayramga ta'sir qildi. Shu yoshimgacha bunaga vaziyatga tush-magandim. Kuchli tushkinlikka tushdim. O'pkam tolib, o'zinni tuta olmadim. Yig'lab yubordim. Tomog'imga bir nima tiqilgandek

tuyladi. Huddi dunyo bir taraf - u, men bir taraf.

Ukam hai go'shakni qo'ymagan ekan:

- Aka, sal o'zingiz bosib oling. Xotirjam kelavering endi. O'zingizni qo'lga oling. Onamiz sizdan rozi ekanlar. Rozi ekanliklarini aytib o'ldilar.

Hamma - hammasi ko'z oldimdan o'tdi. Uzoq muddat o'ygatdim. Yetib bordik Kirib borishimdanog "dod" dedim. "Onajon ikki kun - a? Ikki kun?" Yana bir bor sizni ko'rib, mehringizga to'yib olardim. Yigirma yil sizdan xabar olmaganim, ko'rmaganim uchun afsus - nadomatlar qildim.

Kafanlab ko'mdik. Namozni o'qib qabrga qo'ydik. Marosimlarini o'tqazib, qaytayotgan paytimda ukam menga 3 - 4 dona ko'z yoshi tushgan xat ko'rsatdi. Onam berganlarini ko'nglimdan o'tkazdim. Xat ichidagi yozuvlar o'zlariniki.

"O'g'lim, dunyoda eng baxtli ayol qanchalik baxtga erishgan bo'lsa, men o'sha baxtga yetdim. Siz aziz farzandlarimni otasiz voyaga yetkazdim. Bolalarim qiyalmasin deb o'zim qiyalsam ham sizlarni yaxshi kiynitirib, yaxshi yedirdim, tarbiyangiz bilan shug'ullandim. Vataniga foydasi tegadigan qilib voyaga yetkazdim. O'qitdim. Oxirgi damimda ham baxtli inson sifatida vafot etyapman. Bo'ynimda qarz qolmasin deb o'sha restoranga, o'shanaga buyurtma qilib qo'ydim. Umrin yetsa, birga ziyofatlashamiz. Agar yetmasa, nabiralaring, kelinlaringni olib borib mehmon qilasiz. So'ngira meni haqqimga duo qilsalaring menga shuni o'zi yetadi".

Onaginamni qarang... Ulg'aygach katta uyimizni kichigimizga qoldirib chiqamiz. Shunda onamizni ham birga tashlab chiqamiz go'yo. Ona bechora kattaning bolasidan to kichikning bolasigacha beshik tebratadi. Beshik tebratib nima deydi, bilasizmi? "Bir kosa ovqatni, bir burda nonni haqqini ado qilyapman, xolos", - deydi.

Ana qarangki, bizlarda hasad degan narsa bor. Biz aytamiz: "Onamiz olib keluvchisini, topamonini yaxshi ko'radi". Nimaga yomon ko'radi? Biz nimaga olib kelmayapmiz? Nega akamiz olib keladi-ku, biz olib kelolmaymiz? Bizni nima kamimiz bor? Biz ham o'sha otadan, o'sha onadan dunyoga kelganimiz. Axir Uvays Qaraniy onalarini mardikorlik qilib qishloqni qo'yini boqib bo'lsa ham boqdi-ku. Nima emish, bu kishini qirq mingdan ishlash qoplamasamiz. Ish borligida ishlaysiz. Mayli, ertayu kech bo'lsin.

So'ngida naq qo'lingizga olasiz. Kerak bo'lsa haftalik olasiz. Ko'chaga chiqib otirish, bolmag'ur do'stlaringiz bilan o'tirish qoplaydi - yu, onani quruq nonni suvga tekizib yeyishi qoplaydi - yal! To'yga borib" qaymoq yedim" deysiz qoplaydi-yu, qirq ming pul qoplamasamiz. Ora kunda aytib qo'yadi:

"Rossiyaga borsammi?" Qaysi ona jo'natadi?! "Yuraver, o'g'lim. Pensiyam borku!" - deydi. U ham mayli. Buning gapiga qarangi: "Ona pensiyangizdan berib turing, to'yga", "Ona MIB dan kelib qolibdi. Bermasang uzaman deyapti. Pensiyangiz bormidi?"

Ona bechora pensiyasini svetga, gazga, suvga, o'g'lini... Ha, keyin u nima yeydi? O'g'li shunaga qilaverganidan keyin aytadi-da. Agar birovta mehmondorchilikka borib, birovta shashlik yeb qolsin, bir oy maqtanadi:

"Falonchining bazmida bir dona shashlik yedim."

O'g'ilchi, o'g'il? Har kuni qo'y yog'i, qo'y go'shtiga palovxonto'rani qarsillatib yeb, qizil, oq, qora choyni tanlab ichib, uyga kekkayib, kekirib kirsa - yu, ona bechora bir to'g'ram qotib qolgan nonni quruq suvga tekizib yeb o'tirsa... Onaning tishi to'kilganiga o'n yil bolyapti. U ham bodom, pista chaqisi keladi. Nima emish "Onaning tishlari yo'q. Yeyolmaydilar". Kelida o'sha narsa besh minuda maydalanadi. Piyolaga solib, qoshiqchada yediring, keyin ko'rasiz qanaqa duo qilishni! Bu dunyoda ham, u dunyoda ham Alloh Taolo u insonni boshqacha qiladi. Ko'rgan inson: "Bu odam boshqacha odam ekan" deyidigan qilib qo'yadi. Qiyomat kuni jannatga kirgizib, bog'i - rog'idan ato etadi bunday farzandlarga!

Yoshligingizni eslang. Oldiga o'tqazib olib, o'zining qorni och bo'lsa ham avval biznikini to'ydingan. Endi tassavvur qiling. Agar onamiz bizni ovqatlantirmaganda, shunangangi darajada mehribonchilik qilmaganida nima bo'lardi!

Ona o'zi kimni yaxshi ko'radi? Bir ayoldan so'rashibdi "Qaysi farzandingizni yaxshi ko'rasiz?" "Shunda bir ona shunday javob bergan ekan: "Katta bo'lgunicha kichigini, sog'aygunicha kasalini, safardagisini kelgunigacha, hammasini o'lgunimcha. Agar men o'sam - u, farzandlarimdan birovchasiga ozor yetadigan bo'lsa, tanam ozor topadi. Agar tanam tuproqqa qorishib, aralashib ketse - yu, farzandlarimdan birovchasiga ziyon - zahmar yetadigan bo'lsa,

tuproq'im ozor topadi", degan ekan.

Bilasizmi, shunday maskan bor. Unda mehr degan buloq mavjud. Yo'lingizni intizor kutadi. Joynamozi sira yig'ilmaydi. Nigohlari ko'zyoshlarida xira. Sizni ugina doim orziqib kutadi. Yillab bormasangiz ham bir gina qilmaydi, jimgina kutaveradi. Oq sochlari - xavotirlardan. Titroq qo'llarida choy icholmas, lekin churq etib nolinmaydi. Bechoraning yuragi so'qir. Faqat bizni, bizni farzandlarimiz, deb yashaydi. Qabr yuragini sog'inmasdan qalbiga malham bo'ling. Gar ko'rgani borsangiz, borini dasturxonga to'kadi. Yuragini yuragingizga joylaydi. O'g'il- qizlaringiz bilan borsangiz, yoniga joy soldiring. Bu zot - O N A!

HAKIMXO'JAYEV MUHRIDDINXO'JA MUYDINXO'JA O'G'LI

Xorijiy til va adabiyoti (nemis tili) yo'nalishi, 1-kurs

IZHOR

Mahliyo qiladi ko'zing ziyosi,
Yaralangan qalbni o'rtaydi hamon.
Kamondek yoyilgan qoshing qarosi,
O'zingga rom etding chiroyli jonon.

Yurmogchi ham bo'ldim ortingdan seni,
Sevgimni aytmogchi edim yuzingga.
Lekin yo'l qo'ymadi g'ururim meni,
Jonim bilan aytaman hali o'zingga.

Hijolat bo'lmagin mendan hech qachon,
Yoqdi tabassurning,labing ibosi.
Men rozi bo'laman sendan,ey jonon!
Yulduzdan go'zaldir husning jilosi.

Insonda bo'ladi g'urur, nomus, or,
Tovlanar men tomon ko'zing qiyosi.
Farishtamsan mening, bilib qo'y dildor,
Ulug'dir qizlarning sharmi-hayosi.

Men seni sevaman, ey go'zal yorim,
Senga bag'ishlayin mushfq jonimni.
Umrbod birgamiz ko'zi xumorigin,
O'tkazay sen bilan har bir onimni.

SEVGI

Sevgini nima deydi,
Sevolmaganlar.
Sevgini nima deydi,
Sog'innaganlar.

Eh tushunmaydilarmi,
Eshitmaganlar.
E'tibor bermaydilar,
E'tiborsizlar.

Vaqlar kelganda tlar,
Vujudin qynar.
Va'daga vafo qilmay,
Va'dasin buzar.

Garchi sevishganda ham,
Gumonda yashar.
Gohida yig'lasalar,
Gohi kulishar.

Istirobsizlikdanni yo,
Ishonchsizlikdan.
Iltijo qilishmas,
Iymonsizlikdan.

Sevgini nima deydi,
Sevolmaganlar.
Sevgi nima bilmaslar,
Sevib ko'rmaslar.

AYOLLAR

O'tmishda yashashgan bu ulug' zotlar,
Zulfiyaxonim-u Mohlaroyimlar.
Barcha bolalarga mehriini sochar,
Ellarda dostondir o'zbek ayollar.

Kimki kelsa bizning qishlog'imizga,
Iltifot ko'rsatar mehmonimizga.
Sarishta, ozoda shundayin yurar,
To'maris avlodi o'zbek ayollar.

Onasin gapini ikki qilmaydi,
Nonlarni yopadi, hech ham tinmaydi.
Ishini ko'rsangiz bir bora agar,
Meni aytdi dersiz, barcha lol qolar.

Azonda turibog' hovli supurar,
Yurtini hamisha ozoda etar.
Odamlar aytadi shunday farzandlar,
Laylo-yu Lobarlar elda yod bo'lar.

Loyiqdir mana bu mukofotlarga,
Aytilgan gaplar-u maqto'v yoritqqa.
Rahmatlar aytishar bobo-momlar,
Iymonli, insofi o'zbek ayollar.

O'TKINCHI MUHABBAT

Bu dunyo o'tkinchi havas qilmagin,
Yaxshi yo'ldan yursang seni oqlaydi.
Chin sevgan insoning chin deb bilmagin,
She'rларim o'qisang, qalbing poklaydi!

Ko'zing ko'rmas yorug' dunyoni,
Ko'ngling o'rtar azobli armon.
Chin ko'ngildan sevasan yorni,
Ketsa garchi topmaysan darmom.

Armon senga qalamli qoshi,
Darmom bo'lmas ko'zingning yoshi.
Kelib tegsa dushmaning toshi,
Mard yigitning egilmas boshi.

Endi menga u ham begona,
Sevar edim yonib firoqda.
Bo'ldim garchi Mashrab devona,
Baxtli bo'lsin mendan yiroqda.

Bag'ishlabman unga umrinni,
Yashayman deb birga umrbod.
Egallagan kun-u tuninni,
Xayr deyman go'zal parizodi!

YORQULOV ALISHER SOHIBJON O'G'LI

Tarix o'qitish metodikasi yo'nalishi, 1-kurs

QALB NOLASI

Qalbinga o'xshaydi osmonning rangi,
Osmomni qop-qora bulut qoplagi.
Samoni gumburlatar chaqmoqlar jangi,
Qalbm osmomni ma'yus tinglagi.

Yog'a boshlar yomg'ir shittirlab,
Go'yo osmon yig'laydi yum-yum.
Yomg'irda uchadi qushlar potirlab,
Ayni dam samo ham hayqirdi gum-gum.

Yomg'irni o'xshatdim ko'zim yoshiga,
Chamog'ni qiyoslab yorim qoshiga.
Barini tugatgan o'zing emasmi,
Oxiri yetding-ku sevgi boshiga.

BIR MUHABBAT TARIXI

Bir voqea bo'lib qadim zamonda,
Bu hodisa rostdir balkim afsona.
Eshitganda oshar bitdi har onda,
Shoirilar so'zi bila boldi fasona.

Bu hodisa yigit dardi qissasi,
Birozgina shoir qo'shgan hissasi.
Ko'r yo'qotmas qayta hassasi,
Eshitganda sevgi kelmas qisqasi.

Sevgi doim oshiq shoir mavzusi,
Sevgan bilar oshiqlik qayg'usin.
Sevgan kishi bo'larkan hech kim,
SEVGI haqida og'iz ochma jim.

Sevib qolmish bir shoir yigit,
Yuragida sevgisining nolasi.
Oshiq qalbi jo'sh urardi,
SEVGI bilan tirik odam bolasi.

Oshiq eslar yorin har onda,
Yori esa Qashqadaryo tomonda.
SEVGI ishor qildi yigit nachora,
Rad etildi sevgi bechora.

Yigitning bag'ri tilindi u ezildi,
Ko'zlariga marjon yoshlar tizildi.
Yolg'izligi yana bir bor sezildi,
Oshiq qalbi vayron boldi buzildi.

Bir kun ko'rib boshqa dildorni,
Bo'yniga olib yigitlek omi.
Suluv qizga boqib ko'zlarini,
Aytdi yurakdagi so'zlarini.

Dildor qabul qildi yigit sevgisini,
Bu ikki qalb birlashishi belgisi.
Shundan iborat sevgi hikoyasi,
Bordir har bir she'r nihoyasi.

TALABA NOLASI

Tunov kuni bordim o'qishga,
Bahor keldi xayr deb-qishga.
Institutim savlat to'kib turardi,
Ichkariga maskasi bor kirardi.

Institutim turardi soy bo'yida,
Talabalar madhin qilar kuyida.
Arzilar maqtashga bor bog'i,
Ko'rkandir binoning har yog'i.

Tez yurardim o'z xonam tomon,
Kech qolsam yuzimdir somon.
Guruhrabar qo'ymaydi omon,
Yana bo'lib qolmay deb yomon.

Yetib bordim o'z xonam sari,
Kiyimimda ko'chaning qori.
Taqlatib sekin eshikni,
Topolmay qoldim bo'sh teshikni.

Dars ketardi sokin hamma jim,
Domla dedi: familayang kim.
Indamandan jim turib qoldim,
Kamiga bitta Nb ham oldim.

Nb so'zin tashvishi ko'pda,
Talabaning huquqi yo'qda.
Maslahatim sengadir ey talaba,
Nb lar ustidan qilgin g'alaba.

DIL IZHORI

Novvoy mehri ila yopadi nonni,
Rangi mega qizil, tandagi qonni.
SEVGI ozori qiyar bu jonni,
Chin yurakdan sevaman M.xonni.

Menga juda yoqar uning ko'zlari,
Qalbimga yaqin uning so'zlari.
Qizil gulni eslatadi labi-yuzlari,
Sevishimni bilarmikin o'zlari.

Uni o'ylab o'tmoqda tunlarim bedor,
SEVGI yigit uchun nomusdir or.
Sendan boshqa hammasi bekor,
Men uchun baxtdir kulishing dildor.

To'xtamasman uni sevishdan,
Bahor kelisin charchadik qishdan.
SEVGI dardi qiyaydi jonni,
Alisher sevadi M.....xonni.

Mehri ila shirin novvoyni noni,
Ne qilibdi qizil bo'lsa tanimiz qoni.
Sevgi borku, ko'payur oshiqlar soni,
Visol dardi ila o'tsin har oni.

Menga agar savol bersalar,
SEVGI nima aytgin desalar.
Derdim SEVGI bannisoli tush,
Oshiq yurak uchadi qush.

SEVGI yana qalblarning jangi,
Kim uchundir bu hodisa yangi.
Yigit qalbi uchun bir nur,
Sevolmasang naritroqda tur.

Oshiq do'stim doim olg'a yur,
Tezroq bo'lgin qani turgin tur.
Doim yoningdadir qadrdoning,
Sevganing birla o'tsin har oning.

Rohatlansin yor visoli birla joning,
Baxting ko'rib quvonsin onajoning.
Er yigitsan hech qaytmagin ahdingdan,
Ko'zlarim quvonar sening baxtingdan.

YORBULOVA DILDORA SHOKIR QIZI

O'zbek tilt va adabiyoti yo'nishi, 1-kurs

ONA

Soddalikda tengi yo'q inson,
Uning mehri misli charog'bon,
Yig'lasa osmon uradi tug'yon,
Onam - Ka'bam, onam-jannatim.

Muhim emas u uchun davlat,
Sabri bo'lar tengsiz bir jur'at,
Go'yodir mo'jizaviy xilqat,
Onam - Ka'bam, onam - jannatim.

Farzandin deb jonin beradi,
Achehiq hayot qismatin ko'radi,
Bo'lsa - bo'lsin kulib yuradi,
Onam - Ka'bam, onam-jannatim.

Tilayman onamni hoji qilay,
Boshimda oftob misol ko'taray,
Ortida g'alqonla sobitday turay,
Onam - Ka'bam, onam-jannatim.

Doim ochilar qo'li duoga,
Itijo aylab dildan Xudoga,
Ullansa umidi yetar samoga,
Onam - Ka'bam, onam - jannatim.

Umriga umr qo'sh, llohim,
Senga bu o'tinchim, zorim
Ul zotni qadrlang doim,
Ona - Ka'ba, ona - jannati...

VATANIM

Seni madh etgani qalam izladim,
Nahot ojiz bo'lsa bu faqir qalam.
Onang deb so'rashsa, Vatan so'zladim,
Axir ona Vatan dildagi kalom.

Shaksiz, onamsan otamsan yoxud bortig'im,
Agar qarshi kelsang cho'kamanda tiz.
Bazida yig'layman kelar xo'rligim,
Yuraklarda Vatan qoldirmasa iz.

Sening noming chaqaloq yig'isida ham,
To'marisning o'tli faryodichi ayt,
Vatanin boshiga tushganda bir g'am,
Shiroq afsonasi yaraldi shu dam.

Kezdim jahon lek boshqa topmadim,
"London, Parij hatto Bristol".
Ko'nglimning sururi seni xohladi,
Yodga tushsang bo'lar aqlarim lol.

Ojizman, mohtobimsan, osmonim yoxud borim,
Tillarda, dillarda ta'rifing har on.
Yiqilsam gar suyanchim tog'im,
Shoir bo'lsam Vatanchun yozayin doston.

Qo'ysam qadam tuprog'ingga ko'zimda yosh,
Yaralganman men axir shu zarradan.
Vatanim, Vatanim deya tik turar bosh,
Seni ulug'layman ishon hammadan!!!

OTAM ROZI BO'LSA BAS... ONAM ROZI BO'LSA BAS...

Faryodim tog'-u tosh eshitsin,
Azoblardan chiqmasa-da sas,
Mayli ustimdan kulishsin,
Onam rozi bo'lsa bas...

Yaxshilik ulashay bir quchoq,
Kamaysa zora xasdek gunohim,
Davlat deb chopmayin biroq,
Otam rozi bo'lsa bas...

O'qiy, ishlay hech tolmayin,
Omada qilsin meni mast,
Jigarimsiz tong otirmayin,
Onam rozi bo'lsa bas...

Gohida tuman yo'lga kirib,
Baxtimiz eslasam elas,
Gar riyokor niqobin kiyib,
Otam rozi bo'lsa bas...

MUSTAQIL YURT

Meros qoldirding bizga
Ulug', buyuk ajdodlaring,
So'z axtaray nazmingizga
Temurni buyukligin ko'ring,
Alla aytisa tinch uxlaydi,
Qalbi nurga to'ladi,
Insonman deb jo'sh uradi,
Lol-u hayron bo'ladi,
Yeri zar, dehqoni zargar,
Ulkan zamin, musaffo osmon,
Rahmat deya baralla ayting,
Tug'ilding va ko'rding shu bo'ston...

YO'LDOSHEVA LOBAR AMON QIZI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 1-kurs

BAHOR SOG'INCHI

Ko'ngillardan olib g'amlarni,
Yana baxsh etding dillarga fusi.
Go'zalikka burkab olarni,
Har novdaga baxsh etding husni.

Kuta kuta intiqqan dillar,
Visolingga zor bo'lgan yurak.
Diydoringdan bo'lib bahramand,
Muhabbatim otnoqda kurtak.

Tug'ilmoqda takror tabiat,
Ko'zlaridan qochganday uyqu.
Boshlanmoqda mehnat-mashaqqat,
Shudringlarning yuzida kulgu.

NENI TOPDIM, NENI YO'QOTDIM

Bir kam derlar haqdir begumon,
Ko'z yumdim bariga ishonchim.
Oloq borligiga keltirib imon,
Neni topdim, neni yo'qotdim?

Haqqa yetib borgay ohlarim,
Ota-onam ko'kda mohlarim.
Suyanchig'im, tayanch tog'larim,
Neni topdim neni yo'qotdim?

Yo'qliklardan yaralgan dunyo,
Charxpalakday aylanar go'yo.
O'tmoqdadir umr bir daryo,
Neni topdim neni yo'qotdim?

Osmon bilib goho o'zimni,
Dil qoralab aytdim so'zimni.
Tuftoqlarga bosay yuzimni,
Neni topdim neni yo'qotdim?

Boylilik mansab istab odamlar,
Oyoq toyib tashlar qadamlar.
Bosib kelsa yelkamni g'amlar,
Neni topdim neni yo'qotdim?

Do'stimdan ko'p ekan dushmanim,
Oyoq chalmog istaydi g'anim.
Ojiz qolib yig'lagan onim
Neni topdim neni yo'qotdim?

Ko'ngil istab qolganda orom,
Oshiganman sayohat tomon.
Qil ko'prika borgummi omon,
Neni topdim neni yo'qotdim?

Otishganda ta'ma toshlarin,
Oqizishib ko'zdan yoshlarim.
Chog'lar qazib turganda g'anim,
Neni topdim neni yo'qotdim?

Bug'doyboshq bo'lsam ham,
Ko'ksim kerib yursam ham.
Yurak qiyar bitta g'am,
Neni topdim neni yo'qotdim?

Ketganda ham qo'ldan omadim,
Mag'rur tutib egmadim qaddim.
Dunyo izlab topgan hikmatim,
Neni topdim neni yo'qotdim?!

Soniyalarni quvlar lahzalar,
Kimlar uchun o'tmaydi kunlar.
Oltiniga teng o'tgan bu damlar,
Neni topdim neni yo'qotdim.

Ota-ona narvon aslida,
Buyuk qoni ogar naslida.
Fikr aylab shoir naznida,
Neni topdim neni yo'qotdim?

Xoh bo'y bo'lsin xoh u kambag'al,
Ishlariga to'lagun badal.
Eshik qoqib turganda azal,
Neni topdim neni yo'qotdim?

Jajji kurtak edim bir zamon,
Oshmoqdaman astalab dovon.
Lek bolaman hali ham hamon.
Neni topdim neni yo'qotdim?!

ONAM BOR DUNYODA YASHASH BOSHQACHA

Musaffo osmonim hayot lazzati,
Osuda diyorim Alloh nemati.
Kulganda ortadir yashash qimmat,
Onam bor dunyoda yashash boshqacha.

Boladek otilib borib bag'riga,
Hech ham to'yolmasman qaynoq taftiga.
Meni ulg'aytirdi tutib kaftiga,
Onam bor dunyoda yashash boshqacha.

Bir qo'lda beshik allalar meni,
Ortiga opichib o'tkazar kuni.
Bolam deb unutar hatto dunyoni,
Onam bor dunyoda yashash boshqacha.

Vujudi farzandga baxshida onam,
Mushtipar yolg'izim yakkam yagonam.
Nurlarga to'ldirib turguvchi xonam,
Onam bor dunyoda yashash boshqacha.

O'zi deb yashagan qaysi bir ona,
Qachon o'ylagan o'zini yana,
Bo'lmoq kerakmiyin ishqda devona,
Onam bor dunyoda yashash boshqacha.

Bolam deb o'tkazar lahza onini,
Og'ziga tutadir so'ngi nonini.
Ko'zimga surtayin xoki poyini,
Onam bor dunyoda yashash boshqacha.

Ko'kdagi charog'on portlagan quyosh.
Mehnating oldida egadirman bosh,
Yurakka yupanchim dardkashim dildosh,
Onam bor dunyoda yashash boshqacha.

DILIM XASRATI (YIGIT TILIDAN QIZGA)

Bilmadim qaydadir qildim men xato,
Yuragim kemirar qilmogda ado.
Izlayman dardimga topolmay davo,
Hijron qadamogda o'zin o'qlarin.

Qanday unutayin uning ko'zlarin,
Kulgulari edi jonimga oro.
Topilmas xazinam gavhar bebaho,
Hayot beshavqatni dunyo bevalo.

Izlayman topolmay uning izlarin,
Qanday unutayin maxzun ko'zlarin.
Ko'ymoqlikka bormikin imkon,
Ayрилиqqa yetmas aslo bardoshim.

Vujudim alanga, hislarim isyon,
Yo'qotdim ko'kdagi oyim quyoshim.
Izlayman topmayman uning ko'zlarin,
Qulog'im ostida yangroq ovozi.

Iymanib sevishin aytgandi menga,
O'ti nigohlari, jon olar so'zi.
Olistarga ketdi bilmadim nega,
Izlayman tomolmay uning izlarin.

Birga yurgan gul u bog'larni kezib,
Har qadamda uning iforin sezib.
Bo'larkanmi barin bir zum unutib,
Izlayman lahzada shaxlo ko'zlarin.

Qandayin unutay shirin so'zlarin,
Qalbi qalbimga tutashgan damlar.
Ko'nglimdan ortga chekinar g'amlar
Ayritliq azobi ko'zlarim namamlar.

Unuta olmayman shirin so'zlarin,
Izlayman tomolmay uning izlarin.
Sokinlikka butkul cho'ngan lahزالar,
Sog'inganim bilsang edi qanchalar.

Hijronlaring qalbimni tilib borar,
Yuzda kulgu jism jonim yonib borar.
Axir unutulmaman shirin so'zlarin,
Xazonga aylangan gul u yaprog'im.

Avaylab asragan ko'zim qarog'im,
Tunlarim nurafshon etgan chirog'im.
Visoling istaydi hanuz duddog'im,
Qandayin unutay g'uncha lablarin.

Qo'ldan tutnabman bir bora hatto,
Undami mendami bilimadin xato.
Bag'rimga bosnabman hattoki to'yib,
Yashabman uni shunchalar suyib.

Unutulmaman netay solg'in ko'zlarin,
Taqqir ko'rmasi bizlarni ravo.
Endi begonamiz yo'llardir ayro,
Dardimga malham yo'q bo'lguvchi davo.

Nafas olmogga ham yetmaydi havo,
Ishq asli atalmish dardi bedavo.
- Bas, deya g'ururim ko'tardi isyon,
Balki yetar endi tamom endi jim.

Axir kurashmogga qolmadi kuchim,
Sekin quloq soldim qalbinga tomon.
Uni deb urmogda hali ham hamon,
Baxt tilashdan qolmadi o'zga chora.

Yurak so'nasa balki shu bilan zora,
Roziman qalbimni etsangda pora.
Jilmayib qaragin faqat so'nggi bora,
Endi bo'lmogdasan o'zgasiga yor.

SAYLIYEVA MASHXURA

Boshlang'ich ta'lim metodikasi yo'nalishi, 4-kurs

VJJDON

Dunyo soqov emas atrofga boqing,
Yaproqlar kaftida tonglar yig'laydi.
Qallda o'chgan shanni bir zumga yoqing,
Haqiqat bag'rini yolg'on tig'laydi.

Shafqatsizsan, deya aybni dunyoga
Ag'darib qo'ydi'lar odamlar bugun.
Mehr tosh yurakni tashlab qochganda,
Razolat in qurib tugadi tugun.

Hech kim yomon bo'lib tug'ilmas sira,
Yalqovga non bermas bugunning ASRL.
Yomg'irdan qochganlar do'lga tutilur,
Muhabbat toabad yaxshilar qasri!

Orzuga to'ldiring mitti yurakni,
Kelajak mash'alini birga yoqamiz.
Berilgan tinchlikni yutib ertaga,
Dunyo ko'zlariga qanday boqamiz?

MUNDARIJA

Muqaddima.....	3
Umid Xo'jamqulov.....	8
Asatova Madina Nigmatjanovna.....	16
Abdazova Vazira Yunus qizi.....	19
Ashiraliyeva Gulsunbul Ilhomjon qizi.....	23
Abdumuminova Diana Abdusattar qizi.....	26
Botirboyev Farrux Payzivoy o'g'li.....	31
Baxtiyorova Rayxona Dilmurud qizi.....	35
Ergashev Komron Yo'ldirvoy o'g'li.....	39
Elmurodova Muhabbat Dilmurud qizi.....	44
Jo'raboyeva O'g'li Furgat qizi.....	46
Inoyatova Adiba Axror qizi.....	51
Ismoilova Sug'diyona Ashurovna.....	53
Kushbayeva Farida Abdubannob qizi.....	56
Kadirov Asror Xo'jamqul o'g'li.....	59
Karomatov Akbar Abrammat o'g'li.....	63
Muxammadiyeva Mohichehra Shavkat qizi.....	68
Muxiddinova Dilzoda Elmurod qizi.....	72
Ne'matov Mirshod Mirshod o'g'li.....	75
Nuriddinov Zafar.....	79
Pardaboyeva Ra'no Farxod qizi.....	80
Ravshanjonova Sitara Jahongir qizi.....	84
Rahimov Ro'zimbek Jo'raqulovich.....	89
Sayfullayeva Malikaxon Abdusalom qizi.....	91
Sadullayeva Diinoza Erdosheva.....	95
Toshnamova Hiliola Ro'zmat qizi.....	98
To'rajonova Muxlisa Shuhrat qizi.....	102
To'ronova Zarina Akram qizi.....	106
Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zimat o'g'li.....	109
Xakimxo'jayev Muxiddinxo'ja Muxiddinxo'ja o'g'li.....	119
Yorqilov Alisher Sohibjon o'g'li.....	123
Yorbulova Dildora Shokir qizi.....	128
Yo'ldosheva Lobar Amon qizi.....	131
Sayliyeva Mashxura.....	137

Pedagog ihomlari

Talabalar ijodidan namunalari

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: T. Raxmatullayev

Musabihli: N. Ismatova

Sahifalovchi: A. Muhammad

- 3642 -

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI O'LIY VA O'RTA
MAXSUS TAILIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURSLAR MARKAZI

Mu Um As₂ Ab As Ab B_a Bc Et El Jc Ir Is K K K M T T

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga ruxsat etildi 16.06.2021 y.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'oz. "Times New Roman"
garnitursi. Hisob-nashr tabog'i. 7,0.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 26.

«ZEBO PRINTS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.